ISSN: 2181-3035



Buxoro shahridagi Sitorai Mohi Xossa yodgorligi

TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 14

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Google Scholar | Cyberleninka | Zenodo | Advanced sciences index | Open AIRE

15.12.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

Aniq fanlar	Texnika fanlari	Pedagogika fanlari	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tabiiy fanlar	Iqtisod fanlari	Arxitektura	San'at va madaniyat fanlari
Tibbiyot fanlari	Filologiya fanlari	Qishloq xo'jaligi	Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

14-son 2-qism

15.12.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)

Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g'oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti

Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti

Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BIOLOGIYANI PUXTA O`RGATISH UCHUN SMART MEZON METODIKASINI QO`LLASH 6-SINFDAGI “O`SIMLIKLAR OILALARI” MAVZUSI MISOLIDA

Mo`minova Umidaxon To`xtamurodovna
Marxamat tuman № 22-IDUM o`qituvchisi
Burxonova Munojatxon Maxkamboyevna
Marxamat tuman № 16-maktab o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450593

Annotatsiya: Ushbu maqolada men ta’lim soxasida darsliklarning yangilanib borishi davrida, o`quvchilarga o`zlashtirishga qiyinlik qiladigan mavzularni oson va puxta o`rgatish bo`yicha o`z ish tajribamda ancha vaqtdan buyon yaxshi samara berib kelayotgan zamonaviy dars metodi bilan bo`lishmoqchiman.

Kalit so‘zlar: SMART, ildizmeva, biologiya, Zirali karam sho`rva.

Kirish:

“SMART mezon” metodikasi xaqida qisqacha tushuncha berib o`tadigan bo`lsam, bu -- “SMART” so`zi “specific, measurable, relevant, time bound” so`zlarining qisqartmasi bo`lib, dars maqsadlarini shu mezonlar (o`lchamli, aniq, real, baxolasa bo`ladigan, aniq vaqtga mo`ljallangan) asosida belgilashni ifodalaydi. Bunday darslarni tashkil qilish uchun dars avvalidan o`quvchilarda kreativ kayfiyat va muxitni shakllantirib olish zarur. Ularga bu mavzularning eng muxim jixatlari sifatida nimalarga e`tibor berishliklarini ongli ravishda tushunib etishlariga turtki bo`lishimiz kerak. O`qituvchi o`zinig amaliy tafakkuri va kreativ kompotentligidan kelib chiqib, turli-tuman o`xshatishlar, xilma-xil qofiyalar, qisqartmalarni qo`llanishi mumkin. Mavzu soddaroq va esda qolarli chiqishi uchun shu mavzuning ilmiy moxiyatidan kelib chiqib ertak to`qishi (bu yoshdagi bolalar uchun ayniqsa qiziq) ham mumkin bo`ladi. Bu narsa ayniqsa barcha oilalar mavzusi o`qib bo`lingach, bilimlarni umumlashda juda asqotadi. Masalan; “Qaysi oilalarda 1 va 2 jisnli gullar mavjud” degan savolga o`quvchi uzoq vaqt o`ylanib, keyin javob beradi, sababi bu savolga javob berish uchun u 12ta mavzu yuzasidan fikrlab, hayolan har birini eslab chiqib, qiyinchilik bilan javob topadi. Agar ushbu metodika qo`llaniladigan bo`lsa, u o`quvchini mustaqil va tez fikrlashga, topqirlik bilan javob berishga, eng muximi o`qituvchi berishi mumkin bo`lgan savollarni oldindan prognoz qilib, fikrlab, diqqati jamlangan holda shay turishiga olib keladi. Savolga qaytadigan bo`lsak uni javobini o`qituvchi quyidagicha o`rgatishi mumkin:

- Savol: Qaysi oilalarda 1 va 2 jisnli gullar mavjud?
- Javob: Tok, qoqio`t, sho`ra va zira,

Bug`doyni esdan chiqarmang sira.

(bu yerda tok – tokdoshlar oilasini, qoqio`t – qoqio`tdoshlar oilasini, sho`radoshlar, ziradoshlar, bug`doydoshlar oilalarining vakillarida shunday gullar mavjudligi to`g`ri javobdir va u o`quvchiga qisqa sh`eriy ko`rinishda etkazib beriladi.)

Ushbu sh`eriy satrlar o`quvchining yodida osonlik bilan saqlanib qolishidan tashqari, uni ijodkorlikka, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Darsni yuqoringi kayfiyatda, qiziqarliroq o`tishini ta`minlaydi. O`qituvchini ham o`z ustida ishlab, pedagogik maxoratini oshirib borishiga chorlaydi. Shu o`rinda sizlarda qanday o`xshatish bor deb o`quvchilarni ham ruxlantirish mumkin bo`ladi. Shu kabi o`zim o`ylab topgan misollardan yana bir nechta keltirmoqchiman;

- Savol: Qaysi oila vakillari ildizmeva hosil qiladi?
- Javobi: Zirali karam sho`rva. (bu javob antiqaligi bilan bolaning yodida qoladi va mos ravishda: ziradoshlar, karamdoshlar, sho`radoshlar oilalarining vakillari ekanligini bildiradi.)
- Savol: Ikki yillik o`tlarga ega bo`lgan oilalarni ajrating?
- Javobi: Karam sho`rvani bug`doy non bilan ichmoqchi edim, burchoq urugi chiqib qoldi. (bu javobni eshitganda bolalarda ajablanish hissi paydo bo`ladi, xissiyot ta`sirida ushbu ma`lumot uning xotirasida bir umrga qoladi, 5 yil o`tib oliy o`quv yurtiga o`qishga topshirish chog`ida bilimlarni shu shaklda umumlashtira olish ko`nikmasi savolga qisqa vaqtda to`g`ri va aniq javob topishiga yordam beradi. O`qituvchi puxta bilim berish maqsadiga erishadi. Javobi ham mos ravishda karamdoshlar, sho`radoshlar, bug`doydoshlar, burchoqdoshlar oilasining vakillari ekanligi chiqib kelaveradi.)

Bundan tashqari turli so`z qisqartmalaridan ham foydalanish mumkin, masalan;

- Savol: Qaysi oila vakillari yonbargchali bo`ladi?
- Javob: “robot” so`zini eslang va undosh harflarini tering,

deysiz. Shunda “r” harfiga boshlanadigan faqat bitta oila bu – ra`nodoshlar ekanligini, “b” – burchoqdoshlar, “t” – tokdoshlar ekanini tushintirish juda oddiy va oson bo`ladi.

- Savol: Soyabon topgulga ega oilalarni toping?
- Javob: “zapar” so`zidan foydalaning, undosh harflarni tering.

Mos ravishda ziradoshlar, piyozdoshlar, ra`nodoshlar ekanligi kelib chiqadi.

Oilalarga bog`liq umumiy xususiyatlarni terishda jadvalli usuldan ham foydalanish mumkin. Masalan:

1-jadval:

Seleksiya turi	Xalq seleksiyasi	Ilmiy seleksiya
ish usuli	Parxesh, payvandlash	Changchi, urug`chi
Tegishli oilalari	Tokdosh, ra`nodosh	Gulxayridosh, bug`doydosh, ituzumdosh, qovoqdoshlar

2-jadval:

Turi	Gajakka misollar	Tikanga misollar
Bargning o`zgarishidan	Burchoqdoshlar oilasining ko`pchilik vakillari	Akatsiya, zirk, kaktus
Novdaning o`zgarishidan	Tokdoshlar, qovoqdoshlarning vakillari	Do`lana, yantoq
Epidermis o`zgarishidan		Atirgul, na`matak, ya`ni ra`nodoshlar oilasi vakillari

Xulosa: Darsda pedagogik muloqotning demokratik uslubidan foydalanish o`quvchilar bilan muloqotni ancha osonlashtiradi. Bunda o`qituvchi o`quvchilarga fikrlarini erkin bayon etish xuquqini beradi, o`zi dars nazoratini yo`qotmagan xolatda albatta. Darslarni jonli o`tishida o`quvchi o`zini qanday xis qilishi juda muxim ekanligi har birimizga psixologiyadan ma`lumdir.

O`qituvchi soxasiga doir yangiliklardan hamisha boxabar bo`lib, o`quvchilaridan bir necha qadam oldinda yurishi shart. U izlanishdan to`xtamasligi lozim, shunda uning darslarini o`quvchilari xuddi qiziqarli serialning davomini kutganidek kutishadi.

Foydalanilgan adabiyolar:

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012yil. Toshkent, “Ilm-Ziyo” nashriyoti.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta`limi o`qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. 2013 yil. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003yil.
4. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” -Qarshi.: Nasaf, 2000 yil.

*ZEA MAYS L SACCHARATA*NING AYRIM MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kaxxorova Umida Rahimjon qizi
Samarqand davlat universituti 2-bosqich magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450599

Anotatsiya: Ushbu maqolada zea mays L saccharata ya'ni shirin makkajo'xori morfologiyasi va fiziologiyasi haqidagi ayrim kuzatishlar bo'yicha.
Kalit so'zlar: Zea mays saccharata, shirin makkajo‘xori, qishloq xo'jaligi, doni.

Kirish. Dunyo dehqonchiligida makkajo‘xori asosiy oziq-ovqat, yem-hashak va texnik ahamiyatga ega bo‘lgan xalq xo‘jaligida keng ishlatiladigan universal ekinlardan biri. Uning donidan ko‘pgina mamlakatlarda oziq-ovqat sifatida foydalaniladi. Bu ayniqsa, hozirgi pandemiya va undan keyingi davrda yer yuzi aholisini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji qondirishda nihoyatda dolzarb masalalardan biri.Yevropa mamlakatlarida yetishtirilgan barcha makkajo‘xori donining 45-50, Shimoliy va Markaziy Amerikada 30-35, Janubiy Amerikada 50-55, Osiyoda 70-80, Afrikada 65-70, Avstraliyada 35-40 foiz oziq-ovqat maqsadida foydalaniladi. Portugaliya, Meksika, Kuba, Pokiston, Indoneziya kabi mamlakatlarda yetishtirilgan makkajo‘xori donining 90-95 foizi ovqatga solinadi va iste’mol qilinadi. (X.Yo‘ldoshev, 1984, Q.Azizov, 2021.)

Hozirgi vaqtda Yer yuzida 192 mln gektarga makkajo‘xori ekilib, 1.2 mln tonna yalpi hosil olinmoqda. Makkajo‘xori donini ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlar AQSH 347 mln.t, Xitoy 254 mln.t, Braziliya 101 mln.t, Argentina 50 mln.t, Ukraina 36mln.t bo‘lib,yalpi hosilning 66 foizi yetishtiriladi. O‘zbekistonda har yili don uchun 57-60 ming gektar, silos massasi uchun 220-230 ming gektarga ekilib, don hosildorligi 5,4-5,7 t/ga silos massasidan esa 30-35 t/ga olinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida’’gi farmonida 3.3 ‘’qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish mamlakat oziq-ovqat xavsizligini yanada mustahkamlash ‘’haqidagi va yana bir 2019-yilgi 23-oktabr PF-5853-sonli ’’O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘risida’’gi farmon yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish dolzarb vazifadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida shirin makkajo‘xorining ’’Zamon’’ navi yetishtirish uchun hamda morfologik va ayrim fiziologik xususiyatlarini o‘rganish davomida turli

natijalarga erishildi.

Tadqiqot maqsadi. *Zea mays saccharata* ning ayrim fiziologik xususiyatlari deb olindi. *Zea mays saccharata* tishsimon va yaltiroq makkajo‘xorining mutant sifatida kelib chiqqan. Doni yaltiroq, tashqi ko‘rinishi burishgan, uning tarkibida suvda eriydigan uglevodlar – dekstren ko‘p bo‘ladi. Bu kenja turning tarkibida quruq moddada nisbatan 18-20% oqsil, 64%gacha uglevod, shu jumladan 32% dekstren, moy 8-9%ni tashkil qiladi. Shirin makkajo‘xori sabzavot ekini sifatida ekiladi va so‘talari sut-mum dumbul fazasida yig‘ishtirilib olinadi. Shirin makkajo‘xori o‘simligi past bo‘yli, bachki poyalari hosil qilishga moyil, so‘talari mayda, o‘suv davri qisqa, ya’ni tezpishar, lekin kam hosil bo‘ladi.

Shirin makkajo‘xorini yurtimizda kam ekilgan, mahaliy sharoitga ega navlari yo‘q edi va chetdan keltirilib ayrim navlari ekilgan. Shirin makkajo‘xorining nagrada97, sherzod, zamin, zamon navlari mavjud. Shirin makkajo‘xorining ’’ZAMON’’navi Zamin va Az-306-113 nav na’munalarini chatishtirib, olingan duragay kombinatsiyasidan cheksiz yakka tanlash yo‘li bilan Sabzavot, poliz ekinlari kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajribasi stansiyasida prof.Ostanaqulov T.E, Jabborov Sh, Sanayevlar S.T tomonidan yaratilgan. Tez pishar, o‘suv davri 74-78 kun, ertagi va takroriy ekinga yaroqli. (T.E. Ostanoqulov, A.I. Ismoyilov, Sh.M. Xolmurodov, 2022)

Shirin makkajo‘xorining ta’mi uning tarkibidagi qand miqdorini kraxmalga nisbatan ko‘p ekanligi bilan aniqlanadi. Demak, shirin makkajo‘xorini ta’mi don tarkibidagi qandning kraxmalga nisbati va efir moylari miqdori bo‘yicha aniqlanadi. Qand miqdori vegetatsiya davrida o‘zgarib turadi. Ro‘vak hosil hosil fazasidan boshlab qand miqdori ortib boradi va pishish fazasida kamayadi.

Metodikasi Tadqiqotlarda urug‘lar 24-aprelda 70x20 sm sxemada ekildi. Maysalash, ro‘vaklash, ro‘vakning gullashi, so‘talash, sut, mum, to‘la pishishlar boshlanishi 10% va to‘la 75% ro‘y berish muddatlari aniqlandi.

Tajribada maysalar urug‘ ekilgandan keyin 9-10 kun ya’ni 4-5 may unib chiqishi qayt etildi. Poyachasidan barg chiqarish 1-6 mayga to‘g‘ri keldi. Ro‘vaklash fazasi 13-18 iyunda kuzatildi. Shirin makkajo‘xorining sut pishish davri esa 16-iyunda namoyon bo‘ldi.

Fenologik kuzatishlar natijasida o‘suv davri unib chiqishdan boshlab to‘la pishgunicha 80-82 kun tashkil qilishi aniqlandi, so‘talar soni 2,3ta makkajo‘xori o‘simligining bo‘yi uzunligi172-187sm, barglar soni 9-13ta, dastlabki so‘taning joylashgan balandligi 43,2sm bo‘lganligi qayt etildi. So‘tadagi don qatorlar soni 12dona, so‘tadagi bitta qatordagi donlar soni 41 don bitta so‘tadagi sonlar soni 492ta , bitta so‘tadagi donlar vazni 140gramm, so‘tadagi o‘zak vazni 27g.

Tadqiqotlarda o‘simlik morfologiyasi, biometrik ko‘rsatgichlari, fotosentez yorug‘lik faolligi, suvga taqchilligi tahlil qilindi.

Fotosentezning sof mahsuldorligi deb bir kecha kunduz davomida o‘simlik quruq massasining barglar yuzasi hisobiga ortish nisbatiga aytiladi. Ko‘pchilik o‘simliklarda bu 5-12g\m2 ga teng.

Tadqiqot uchun o‘stirilayotgan o‘simlikning fotosentez sof mahsuldorligini aniqlash uchun yerustki poyasi massasi hisoblab olindi va o‘simlik termostatda ho‘l miqdori ketgunga qadar quritildi hamda yana quruq massa taroziga torildi. Ma’lum hisob ishlari olib borilgandan so‘ng fotosentezni sof mahsuldorligi 9.6g\m2 ni tashkil etdi.

Tadqiqot davomida shirin makkajo‘xorida suvga taqchillik darajasi ham aniqlandi. Tajriba 4 xil muddatlarda aniqlandi. 7-8ta barg hosil qilganda 9,6 foizga, ro‘vaklash fazasida 9,2 foizga, so‘ta hosil qilishida 8,9 foizga, sut pishish fazasida esa 8,7 foizga teng bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki hozirgi global issiq tufayli makkajo‘xorining ro‘vak qismidagi changchilari umri qisqa bo‘lib bormoqda. Bu esa so‘ta donlarining qatoridagi donlar to‘liq yetilmay don qatorlar soni kamayishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Bu esa hozirgi global issiqda makkajo‘xorining issiqqa chidamli navlarini yaratish juda muhim ekanini bildiradi. Yoki ekish muddatini bir muncha oldinga surish ham maksimal issiq kunlar boshlangunicha o‘simlik changlanib olishga ulguradi. Shirin makkajo‘xori sabzavot ekin ekanligini va u ko‘p miqdorda iste’mol qilinishi hisobga oladigan bo‘lsak, shirin makkajo‘xorini serhosil navlarini yaratish juda muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining5853-sonli farmoni
3. T.E. Ostanaquloq, A.I. Ismoyilov, SH.M. Xolmurodov.Shirin va tishsimon makkajo‘xori birlamchi urug‘chiligi va agrotexnologiyasining dolzarb masalalari Samarqand 2022

MIRZO ULUG‘BEKNING JAHON ILM-FANIGA QO‘SHGAN HISSASI

Davranov Mirziyod Jaloliddin o‘g‘li
Avg‘onova Mag‘fuza Orifovna
Ahmedova Muhabbat Usmonovna
TATU Samarqand filiali “Axborot komunikatsiya texnologiyalari va kasb ta’limi” fakulteti Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va kasb ta’limi 101-guruhi talabalari
Ilmiy rahbar TATU Samarqand filiali Ijtimioy va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Samadov Xurshid O‘lmasjonovich
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450603

Annotatsiya: Qomusiy olim Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining mashhur astronomi, tarixchisi, geografi, matematigi, musiqa ilmi ustasi va shu bilan birga davlati rivojiga hissa qo‘shgan hukmdor hamdir.

Kalit so‘zlar: Samarqand, astronom, matematik, tarixchi, geograf, rasadxona, sekstant, madrasa, akademiya.

“Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma’naviyatining poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berganini ko‘rsatadi”. ” Islom Karimov.”Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” Mirzo Ulug‘bek buyuk o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi.Shohruh Mirzoning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi.Sohibqironning “besh yillikyurish”ida (1392-1396-y)Iroqdagi Mordin qal’asi qamal qilish chog‘ida tug‘ilgan.Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va muajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xushhabarini yetkazadi.Sohibqiron hursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay va Ulug‘bek deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog‘lash mumkin.Shunday qilib Mirzo Ulug‘bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tavallud topgan.Amir Temur Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan.Klavixoning ma’lumotlariga ko‘ra, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. Mirzo Ulug‘bek 1409-yildan boshlab Movarounnahr hokimi bo‘lgan.U payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, degan hadislariga doimo amal qilgan. Ulug‘bek Ahmad Farg‘oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom

asarlarini o‘rganadi.Bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey bilan tanishadi.G‘iyosiddin Jamshid Koshoniyning yozishicha, Ulug‘bek donishmand bo‘lgan. Qur’oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan.Ulug‘bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan.Shaharda hunarmandchilik, me’morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat-ush shuaro” sida shunday yozgan;”Olim, odil, g‘olib va himmatli podshoh Ulug‘bek Ko‘ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho‘qqiga ko‘tarilgan.Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shuki, islomiyat zamonida, balki Iskandar Zulqarnayn davridan to shu damgacha Ulug‘bek Ko‘ragondek olim va podshoh saltanat taxtida o‘tirmagan.U otasi Shohruh bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi.” Ulug‘bek Buxoroda(1417), Samarqandda(1420), G‘ijduvonda(1432-33)madrasalar va Marvda hayriya muassalarini barpo qildirgan.Madrasalarda diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar ham o‘qitildi, ko‘proq aniq fanlarga e’tibor qaratildi.Ulug‘bek O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini O‘rta Osiyo sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog‘onsiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi—Samarqand ilmiy maktabini o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi.Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug‘bek Samarqand yaqinidagi Ko‘xak(Cho‘ponota) tepaligida rasadxona barpo ettirdi. Rasadxona 1424-1429-yillarda qurilgan.”Boburnoma”dagi ma’lumotlarga ko‘ra rasadxonaning balandligi 30, 4 mdan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Rasadxona o‘rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo‘lgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblar bo‘lgan.Ulardan eng asosiysi radiusi 40, 2 m li qo‘shaloq yoydan iboratkvadrant yoki (sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan.Asbob aylanasida bir gradus yoy 701, 85 mm va bir minut yoy 11, 53 mmga to‘g‘ri keladi.Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari—ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan.Rasadxonada kichik o‘lchamli asboblar :armillyar sfera, 2, 4 va 7 halqadan iborat o‘lchov asboblari, triangula, quyosh va yulduz soatlari, asturlob va boshqalar bo‘lgan.Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan.Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari”Ziji Ko‘ragoniy” rasadxonada yaratilgan.Uning qurilishi va keying ilmiy faoliyati Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog‘liq.Ulug‘bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yilda V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazishma ishlari

natijasida topilgan.Xususan bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g‘isht bo‘lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo‘shaloq yoydan iborat ulkan bosh qurilmaning qoldiq qismlari aniqlangan.Uning katta zallari, katta kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozishicha, Ulug‘bek rasadxonasining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlik bilan o‘rganilgan.Rasdxonada kutubxona ham bo‘lgan.Bu kutubxonada fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb o‘n besh ming jild kitob saqlangan. Ulug‘bekning faol ishtiroki bilan Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug‘bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan “Aflotuni zamon” deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, “O‘z davrining Ptolomeyi” nomi bilan mashhur Ali Qushchi va ko‘pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar.Xullas, Ulug‘bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi.Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo‘zg‘almas(turg‘un) yulduzning o‘rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijasi asosida matematika va astronomiyaga oid bir qator nodir asarlar yaratildi.Ulug‘bekning shoh asari “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”(Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 ta qo‘zg‘almas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.Ulug‘bekning astronomik jadvali o‘sha zamondagi shunga o‘xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi.Shuningdek, Ulug‘bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo‘lsak, u bor-yo‘gi bir minut-u ikki sekundga farq qiladi.Bu XV asr uchun g‘oyat yuksak aniqlik bo‘lib, hozirgi zamon o‘lchovlariga juda yaqindir. Rasadxonaning ichki devorda osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog‘, dengiz, mamlakatlar bilan belgilangan Yer shari tasviri ham ishlangan.Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-katta hujralar quriladi..Uning etagida esa ikkita chorbog‘ barpo etiladi.Ulardan bir Bog‘I Maydon, ikkinchisi esa Chinnixona nomi bilan shuhrat topadi.Rasadxona joylashgan bu mavze xalq orasida “Naqshi Jahon” degan nom bilan shuhrat qozongan. Keyinchalik uqarovsiz qolib XVI asrda vayron qilingan.Hozir Ulug‘bek rasadxonasidagi katta asbob kvadrantning yer ostida saqlangan qismi balandligi bilan 11 m keladi.1964-yil Ulugbek rasadxonasi yonida Ulug‘bek muzeyi ochilgan.Ulug‘bek rasadxonasining asl ko‘rinishi, ichki tuzilishi, bosh qurilmasi haqida O‘zbekiston va chet el olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.Yaqin yillargacha Ulug‘bek faqat astronom va matematik deb hisoblanar edi. Lekin uning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixiy Rashidiy” asarida “Mirzo Ulug‘bek tarixnavis

donishmand va “To‘rt ulus tarixi”ni ham yozib qoldirgan edi”, deb yozgan.Ulug‘bekning turkiyda yozgan “Tarixi arba” ulus” asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘z davrining o‘ziga xos akademiyasi edi.Ulug‘bek tevarigida uyushgan 200 dan ortiq olimlarning o‘z bag‘rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan.Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778):”Ulug‘bek Samarqandda bo‘lib akademiyaga asos soldi.Yer sharini o‘lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi”, - deb yozgan edi. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘rta asrlar musulmon sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Ulug‘bek akademiyasidagi yirik olim—Ali Qushchini Ulug‘bek “Ziji” ning so‘zboshisida “farzandi arjumand”, “aziz farzandim” deydi.Aslida u Ulug‘bekning sadoqatli shogirdi bo‘lib, “Zij” ustida ishlar poyoniga yetkazilgunga qadar ustoziga yordam bergan.Ulug‘bek Samarqandda 2 ta madrasa :biri—Registon ansambli tarkibida va 2-si Go‘ri Amir ansambli tarkibida barpo qilgan.Uning o‘zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma’ruza o‘qigan. Boshqa vaqtini ko‘proq astronomik kuzatishlarga, “Zij” ustida ishlashga va davlat ishlariga bag‘ishlagan.Ulug‘bekning yana bir matematik asari “Risolai Ulug‘bek”deb ataladi va uning bir nushasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o‘rganilmagan.Balki u ham hisoblash matematikasiga aloqadordir. Fan va madaniyat tarixida so‘nmas iz qoldirgan Ulug‘bekningilmiy merosi uning “Zij”idir.Bu asar sayyoralar, Quyoshva Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo‘llanilgan matematik usullari bo‘yicha o‘rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo‘lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan.”Zij”ga ilk sharhni Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi “Sharhi Ziji Ulug‘bek” nomi bilan yozgan. XV asrning o‘zida qohiralik munajjim Shamsiddin Muhammad as So‘fiy al Misriy o‘zining “Tashil Ziji Ulug‘bek” (“Ulug‘bek “Zij”ini osonlashtirish”) nomli asar yozib, unda Ulug‘bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Suriyalik olim Zayniddin al Javhariy as Solihiy (XV asr) “Ad Dur annozil fi tashil attaqvim” (“Taqvimni soddalashtirishda nozil bo‘lgan durlar”) nomli asarida Ulug‘bek “Zij”ini qayta ishlagan. Ulug‘bek “Zij”iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so‘nggi namoyandasi Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyning 1523-yilda yozib tugatilgan “Sharhi Ziji Ulug‘bek” asridir. Birjandiy o‘z sharhida mufassal va aniq raqamlar bilan bayon qilib “Zij”ning sirlarini ochadi.Ulug‘bekning ko‘plab jumlalarini u chizmalar bilan tushuntirib isbotlagan. Samarqandlik ikki buyuk olim –Qozizoda Rumiy va Ali Qushchining nabirasi Miram Chalabiy (1525-yil) “Zij”ga sharh yozib, uni “Dastur alamal va tashih aljadval” (“Amallar dasturi va jadvallarning tugatilishi”) deb

atagan.XVI asrning 2-yarmi va XVII-XVIII asrlardagi qator musulmon olimlari “Zij”ga sharh yozdilar va uni qayta ishlab o‘z zamonlari va makonlariga moslashtirganlar.Ular orasida suriyalik Taqiyiddin ash Shomiy(1526-85), Mazhariddin al Qoriy (XVI asr), misrlik Abdulqodir al Manufiy ash Shofiy(XVI asr), eronlik Shoh Fathulloh Shiroziy (1589-yil), Muhammad Boqir al Yazdiy (1637-y), hind Farididdin Dehlaviy (1629-y), turk Muhammad Chalabiy (1640-Y), misrlik Rizvon ar Razzoq al Misriy (1710y), Dog‘istonlik Damodon al Muhiy (1718-y) kabi olimlarning sharhlari shular jumlasidandir.Bular orasida hind davlat arbobi va olimi Savay Jay Singhning faoliyati alohida o‘rin tutadi.U Hindistonning Boburiy sultoni Muhammadshohning (1719-48) farmoni bilan Ulug‘bek rasadxonasidagi jihozlarning ta’riflariga ko‘ra, Dehli, Banoras, Jaypur, Ujjayn va Muttrada rasadxonalarni barpo etadi.So‘ng u homiylik qilgan sultonga atab “Ziji Muhammadshohiy” asarini yozgan va unda Ulug‘bekning ba’zi jadvallarini tayyorligicha qabul qilgan. Ulug‘bekning nomi Yevropada va umuman G‘arb mamlakatlarida buyuk bobosi Amir Temurning shuhrati tufayli ancha ilgari ma’lum bo‘lgan.Yevropa Amir Temur va uning oila-a’zolari haqida birinchi bo‘lib Samarqandga 1403-1405-yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixodan eshitgan.Klavixoning “Kundaliklar”I 1582-yil, Seviliyada vaParijda nashr etilganidan so‘ng yevropaliklar darhol Amir Temur va uning oila a’zolari bilan qiziqqanlar. Ulug‘bek nomi XVII asr boshidanoq (1601-y) Amir Temurga bag‘ishlangan dramatik asarlarda uchraydi.1690- yilda Gdanskda polyak astronomi Yan Gaveliy chop ettirgan “Yulduzlar osmonining atlasi”dagi ikkita gravyurada o‘sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug‘bekka faxrli o‘rinni bergan, unda Ulug‘bekning yulduzlar jadvalini Ptolomey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o‘zining jadvallari bilan solishtirgan.1711-yilda Oksfordda Ulug‘bekning geografik jadvali 3 marta nashr etilgan.1908-1909-yillarda V.L.Vyatkin Ulug‘bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi—kvadrantini kavlab topgandan so‘ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi.Natijada 1918-yilda V.V.Bartoldning “Ulug‘bek va uning davri” asari nashr etilgan.Sovet davrida Ulug‘bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo‘yicha T.N.Qori Niyoziy ko‘p harakat qilgan.Ulug‘bek “Zij”ining to‘liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta’minlangan tarjimasini A.Ahmedov 1994-yilda amalga oshirib nashr ettirdi. Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda,oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi.Shu yili Toshkentda Ulug‘bekka atab haykal o‘rnatildi.Ulug‘bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferenszallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan.Samarqandda Ulug‘bekning memorial muzeyi tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat –yengimas kuch.-T.:”Ma’naviyat”, 2008.
2. Ahmedov Bo‘riboy.O‘zbekiston tarixi manbalari. T.:”O‘qituvchi”.1991.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Ahmedov Bo‘riboy .Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida.T.:”O‘qituvchi”1996.
5. Sadriddin Salim Buxoriy.Tabarruk ziyoratgohlar.T.:”Yozuvchi”1993

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA BUYUK ALLOMALAR FIKRLARI VA BUGUNGI KUN TALABI

Matmuratova Oygul Urazbayevna
Xorazm viloyati Gurlan tumani
40-AFChO‘I maktabi biologiya va kimyo fani o'qituvchisi
Urabayeva Shahlo Davlatbayevna
Xorazm viloyati Gurlan tumani 13-maktabi kimyo fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450621

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya berish jarayonida ulug‘ allomalarimizdan Beruniynig ta’lim-tarbiya sohasidagi hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan fikrlari, ta’lim oluvchini zeriktirmaslik, ta’lim berishda turli usullardan foydalanish, uzviylik,izchillik, ko‘rgazmalilik asosida bayon etish haqidagi fikrlari keltirilgan. Abu Ali ibn Sinoning ta’lim o‘qituvchilarning ma’suliyatli, bosiq va jiddiy bo‘lishi,o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish kerakligi va fanga qiziqtira olishi kabi fikrlari haqida so‘z yuritilgan. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ta’lim texnologiyalari va metodlarining turlari, ahamiyati va ularning o‘z ornida qo‘llanilish kerakligi, ta’limning mazmundor va qiziqarli bo‘lishi ta’lim beruvchiga bog‘liqligi, doimo yagilik va zamon bilan hamnafas bo‘lish kerakligi haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: Beruniy, Abu Ali ibn Sino, metodika, pedagogik texnologiya, tarbiya.

Bugungi kunning muhim masalalaridan biri yosh avlodga munosib ta’lim – tarbiya berishdir. XXI asr ta’lim va tarbiyaning ilg‘or texnologiyalaridan va ajdodlarimiz bitiklaridan doimo foydalana borishni talab qilmoqda. Ma’lumki yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda buyuk allomalarning fikrlari katta ahamiyatga ega. Beruniy ta’lim-tarbiya sohasida o‘sha zamonlarda, hatto hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan fikrlarni ilgari suradi. U ta’lim berish jarayonida ta’lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsa yoki bitta usulda o‘rgatmaslik, uzviylik, izchillik asosida, mavzularni qiziqarli asoslab, ko‘rgazmali bayon etish va shunga o‘xshash narsalarga e’tibor berish lozimligini uqtirgan. Beruniy ta’kidlashichai, inson kamolotida uch narsa muhimdir, bu hozirgi ma’rifat, ilm-fanni e’tirof qiluvchi irsiyat, ijtimoiy muhit va to‘g‘ri tarbiyadir. Yana u inson kamolga yetishi uchun eng muhim omil-muallimning ilm-ma’rifatli bo‘lishi bilan birga yuksak axloqli bo‘lishi ham kerakligini e’tirof etadi. Abu Ali ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining ta’lim tarbiyaga oid qarashlarini falsafiy, ijtimoiy qarashlari bilan bog‘liq holda maxsus risolalarni talqin etgan.Abu Ali ibn Sino inson kamolotining

bosh mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Ta’lim jarayonida bilim berish o‘qituvchilarning ma’suliyatli burchidir. Ibn Sino o‘qituvchilarning qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritib, shunday yo‘l yo‘riqlar beradi;

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimligini aytib bera olish;
- bilimlarni tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘ta olish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Ajdodlarimiz me’roslariga tayanib bugungi kunning ta’lim tarbiya jarayonini tuzishda turli metod va texnologiyalardan foydalanilib kelinmoqda.Pedagogik texnologiyaning turlari: muammoli o‘qitish, mujassamlashtirilgan ta’lim, modul ta’limi, rivojlantiruvchi ta’lim, differensiallashgan ta’lim, faol o‘qitish, o‘yin texnologiyalari mavjud. Hozirgi kunda o‘qituvchilar pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarli teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud.« Aslida zamonaviy ta‘lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo‘g‘ib tashlamagani deyarli mo‘jiza, chunki bu nozik nihol (ya‘ni qiziquvchanlik) rag‘batlantirish yo‘li bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo‘lmasa, u shubxasiz, mavh bo‘ladi» (A.Eynshteyn). Bu yerda ta‘lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o‘qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e‘tiborni nimaga qaratilishdadir. Demak ta’lim berish jarayonida ta’lim oluvchinining yoshi, imkoniyati, qiziqishi,ehtiyoji,zaif tomonlari kabi barcha xususiyatlari e’tiborga olingan holda ulug‘ allomalarimiz bitiklaridan foydalangan holda,yangiliklarga moslashtirgan holda turli texnologiya va metodlardan o‘z o‘rnida foydalanilsa bugunning talabiga javob beradigan barkamol avlod tarbiyalanadi. mon talablari bo`lg`usi kadrlarning o`zlarida mavjud bo`lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o`rganib, mag`zini chaqib, undan keyin o`z ta'lim oluvchilariga saboq berish ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo`lishi ustoz bilan shogirdlarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog`laydi, ular o`rtasidagi samimiy hurmat va o`zaro ishonchni

mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – TDPU, 2000. – 52 b.

2.Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 143-bet.

3. J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov, ―Pedagogik texnologiya asoslari‖, T., 2004.

4. J.Yo‘ldoshev, ―Ta’lim yangilanish yo‘lida‖, T., 2000.

AT-TERMIZIYNING YOSHLAR TARBIYASIGA OID TO'PLAGAN HADISLARI HAQIDA

Samatov Hurshid O'lmasjonovich
TATU Samarqand filiali dosenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Kuvatov Zuxriddin Samariddin o'g'li
Boltaev Otabek Xusan o'g'li
Xasanov Golibjon Safarboy o'g'li
TATU Samarqand filiali talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450631

Annotatsiya: Ushbu maqolada hadis ilmining buyuk vakillaridan biri hisoblangan,yetuk Muhaddis olim Imom At-Termiziy(Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zaxdok Sullamiy Bug‘iy Termiziy)ning hayoti va ijodi yozgan asarlari,asarlari mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kirish so'zlar: at-Termiziy, Al Buxoriy, din, hadis, muhaddis.

Termiziy Abu Iso, Imom Termiziy (to‘liq nomi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zaxdok Sullamiy Bug‘iy Termiziy) (824, Termiz — 892, Bug‘ qishlog‘i, hozirgi Sherobod tumani) — buyuk muhaddis. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do‘st tutingan, Bug‘iy deyilishiga sabab o‘sha vaqtdagi But nomli qishloqda vafot etib, shu yerga dafn qilingan. Umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgani uchun adDarir taxallusi bilan ham atalgan. Termiziyning yoshlik yillari Termiz shahrida o‘tgan, dastlabki ma’lumotni ham shu yerda olgan. Bolaligidan o‘ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o‘z tengqurlaridan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o‘rgangan, bu boradagi bilimlarini yanada oshirish uchun ko‘pgina Sharq mamlakatlariga borgan. Uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog‘ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o‘zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo‘yicha o‘sha davrning yirik olimlarndan ta’lim oladi. Mashhur muhaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sayd, Ishoq ibn Muso, Maxmud ibn G‘aylon va boshqa uning ustozlari edi.

Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo‘lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashashgan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e’tirof etadi. O‘z navbatida Imom Buxoriy o‘z shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan bahra topganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq bahra topdim", degan. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho

edi.

Termiziy yo‘lda, safarda bo‘lganda ham, yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarni yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida alohida qayd qilib borardi. 868 yil xorij safaridan o‘z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiyijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o‘z obro‘siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo molmatosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g‘amini yeyish Termiziyning hayoti tarzi edi. Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Ular ichida Makhul ibn alFadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-jome’ as-sahih" ("Ishonarli to‘plam"), "ashShamoil annabaviya" yoki "AshShamoil annabiy sallolohu alayhi va sallam" ("Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari"), "alIlal filhadis" ("Hadislardagi illatlar"), "Risola filxilof valjadal" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "atTa’rix" ("Tarix"), "Kitob uzzuhd" ("Zohidlik kitobi"), "Kitob ulasmo valkuno" ("Ismlar va kunyalar kitobi") va boshqa Termiziyning asarlari ichvda eng mashhuri, shubhasiz, "Al-jome’ as-sahih" bo‘lib, 6 ta ishonchli hadislar to‘plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda "Jome’ at-Termiziy", "Sahihi Termiziy", "Sunani Termiziy" nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri "ash-Shamoil an-nabaviya" Muhammad (alayhi sallom)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o‘z ichiga qamragan manbadir. Bu kitob azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi g‘oyatda oddiy. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. "Ash-Shamoil annabaviya"ning 1-qismida keltirilgan hadisi shariflar payg‘ambarning suvrat (tashqi qiyofasi) iga, 2-qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosiyu, axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag‘ishlangan. Kitobning 16-asrga oid bir qo‘lyozmasi Toshkentda, O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi. "Ash-Shamoil an-nabaviya" o‘zbek tiliga o‘girilib so‘nggi yillarda Toshkentda bir necha bor nashr etildi. 1990-yil Termiziy tavalludining 1200-yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi 2016 2017-yillari qaytadan ta’mirlanib, qutlug‘ ziyoratgohga aylantirildi.

Imom Termiziy yoshligidan o‘ta tirishqoq, idrokli, aql- zakovatli bo‘lganligi bois o‘z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o‘ta qiziqishi tufayli o‘sha davrning ko‘pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o‘rgangan. Qo‘shni Balx va Hayraton

shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o‘rnatilishiga munosib hissa qo‘shgan yetuk olimlardan biridir. Yoshligidan ilmu-fanga tashna Imom Termiziy 850 yildan, ya’ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safarlar qiladi. Jumladan, u Hijozda — Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko‘plab muhaddis, faqih, va ulamolar bilan uchrashib, muloqotda bo‘lib, ulardan ta’lim oladi, qizg‘in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi.

Shu bilan bir qatorda Iso Termiziy payg‘ambar alayhissalom hadislarini to‘plashga alohida e’tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o‘zi o‘qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog‘ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to‘g‘riligiga to‘liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog‘ozlarga qayd etardi. Hadislarning to‘g‘riligiga shubha bo‘lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahiyh (to‘g‘ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma’qul), zaif (bo‘sh, ishonchsiz), g‘ariyb (g‘alati) kabi turlarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imom Termiziy o‘z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. O‘ o‘sha davrning yetuk muhaddisi sifatida ko‘pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Alloma zehnining o‘tkirligi hamda quvvai-hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko‘plab misol va rivoyatlar keltiriladi.

Muhaddis bobokalonimiz Imom Iso Termiziy zamonidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuqori baholagan. Ulardan biri Imom Termiziyni “Hadis ilmida iqtido qilinadigan yagona olim” deb yozsa, boshqa biri esa uni “Birinchilardan bo‘lib hadislarni sahih, hasan, zaifga taqsim qilganiga guvohlik beradi”. Ayniqsa, muhaddis olimning asarlaridagi ravonlik faqat ziyoli kishilar uchun emas, balki har bir inson tushunishi mumkin bo‘lishiga sabab ekanini alohida ta’kidlash joiz. Dunyo ulamolari buyuk ilm sohibi bo‘lgan hamda yuksak e’tirofga munosib ko‘rilgan bobokalonimizning ibratli hayot yo‘llari va boy ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish biz yoshlar uchun ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

«AL-JOMI' AS-SAHIYH»

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonchli to‘plam») eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi' al-kabiyr», («Katta to‘plam»), «Sahiyh at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyning yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan

Ushbu asar qo‘lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o‘zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli

Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' as-sahiyh» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko‘rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo‘lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo‘lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yidda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To‘rt juz'dan iborat bo‘lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug‘taziy ala Jomi' at-Termiziy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning «Sharh Sunan at-Termiziy», Ahmad Muhammad Shokirning «Tahqiyq va sharh Jomi' at-Termiziy» (o‘ndan ikki qismi 1937 yidda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning «Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy» (uning birinchi qismi 1963 yilda Pokistonda nashr kilingan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyning «Sharh sunan at-Termiziy» nomli forscha sharhi, shuningdek Rashib Ahmad al-Kanuhiyning «Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy» (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz'dan iborat «Al-Urf ash-shaziy ala Jomi' at-Termiziy» (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (u 1138 yilda vafot etgan) «Hoshiya ala sunan at-Termiziy»[13] kabi sharhlarini ko‘rsatish mumkin.

Avval eslatib o‘tganimizdek, hijriy uchinchi asr (melodiy to‘qkizinchi asr) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

ILMU AMALI IBRATLI ALLOMA

Mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziyning shaxsiy hayoti va barkamol ijodining har tomonlama o‘rganilishi tufayli buyuk bobokalonimizning hozirgi davrimiz uchun ham o‘rnak bo‘ladigan ko‘p ibratomuz fazilatlarining guvohi bo‘lamiz. Eng avvalo, at-Termiziyning yoshligidan ilm-fanga g‘oyatda chanqoqligi va zo‘r havas bilan qiziqishi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga ham bardosh berib o‘z maqsadi, ya'ni o‘z bilimini oshirish yo‘lidagi jiddu-jahdi katta-katta tahsinga sazovordir.

Yozma manbalarda keltirilishicha, hadisshunoslik ilmi sakkizinchi asrning

ikkinchi yarmidan o‘n birinchi asr o‘rtalarigacha asosiy va zaruriy mashg‘ulotlardan biri darajasiga aylangan. Bu davrda Sharqning turli mamlakatlaridan bo‘lgan to‘rt yuzdan ortiq mualliflar ana shu ilm (hadisshunoslik) bilan shug‘ullanganlar.

Ma'lumki, o‘z bilimini oshirish borasida at-Termiziy ko‘pgina xorijiy mamlakatlarni ziyorat qilgan. Elma-el kezib, cho‘lu biyobonlar oshib roviylardan eshitgan hadislarini yitish bilan shug‘ullangan. Ularni tartibli ravishda yozib qayd qilish bilan birga ushbu hadislarni qanchalik darajada sahiyh, hasan yoki zaif, mavzu (soxta, o‘ylab chiqarilgan) ekanligini qayta-qayta tekshirgan, ilmiy ravishda chuqur tadqiq etgan. Allomaning shogirdlari orasida turli millat vakillari ham bo‘lgan.

Yoshi qirqdan oshgan va turli mamlakatlar olimlaridan ta'lim olgan at-Termiziy ham Imom al-Buxoriy mashhur bo‘lgan paytda yetuk olim darajasida tanilgan. Ikkala olim o‘rtasida 863-868 yillar oralarida Nishopurda ko‘pdan-ko‘p samarali ilmiy munozaralar, samimiy do‘stona uchrashuvlar bo‘lgan. At-Termiziy o‘z asarlari uchun ko‘pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan bo‘lgan uchrashuvlarida olganligini yozadi

Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Uning «Al-Jomi' as-sahiyh», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib insonlarni halol, adolatli, iymon-e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e'tiborli bo‘lishga chorlaydi.

Bu ibratli pand-nasihatlar va o‘gitlar xalqimizni, jamiyatimiz ahlini, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o‘rinlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo‘lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo‘lgan «al-Jomi' as-sahiyh»da tarix, mantiq huquqshunoslik, tabobat, ziroatga oid ko‘plab qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Arab tilini rivojlantirishda at-Termiziyning xizmatlari kattaligini zamonaviy olimlar qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o‘rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Усмонхон Алимов. Илмнинг фазилати. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2010 йил. 6-бет.

2. Алимов У. Илмнинг фазилати. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2010 йил. 47-48 бетлар.

3. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 32 бет.

4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 104 бет.

5. Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Тошкент: “Шарқ”, 2005 йил. 158-бет.

6. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 108-бет.

7. Фалсафа қомусий луғат. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, –Т.: 2004. –Б.66.

8. Мозийдан таралган зиё. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 60.

9. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. –Т.: Ғофур Ғулом нашрёти, 2017 йил. 183 – бет.

YURIDIK TEXNIKUMLAR FAOLIYATI XORAZM VILOYAT YURIDIK TEXNIKUMI MISOLIDA

Ibragimova Zulayho Karimbayevna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi kafedrasi mudiri
Ozodova Iroda Hamza qizi
Xorazm viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450639

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizdagi yuridik texnikumlarning faoliyati Xorazm viloyat yuridik texnikumi misolida ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: yuridik texnikum, huquqshunos kadr, faoliyat, sud-huquq sohasi.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, bugungi kunda yurtimizda sud-huquq sohasiga, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga hamda huquqshunos kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi keng kolamli ishlar esa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yurisprudensiya sohasida zamon talablariga javob bera oladigan, bilimli mutaxassislarni tayyorlashda respublikamizning har bir viloyatida tashkil qilingan yuridik texnikumlar alohida o‘rin tutadi. Yuridik soha rivojidagi tizimli va keng ko‘lamli ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2020-yil 30-oktabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Hozirgi kunda yurtimizda Adliya vazirligining yuridik texnikumlari o‘z faoliyatini samarali tarzda yuritib kelmoqda. Shunga ko‘ra bu yuridik texnikumlar har yili “davlat huquqiy faoliyat”, “yuridik xizmat”, “sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydi. O‘zbekiston Respublikasi hududida bu texnikumlarning obro‘si kundan kunga ortib bormoqda. Xususan, Xorazm viloyat yuridik texnikumi o‘z oldiga yetuk va jahon talablariga mos yuridik kadrlarni tayyorlash maqsadini qo‘ygan. Xorazm viloyat yuridik texnikumi o‘z bitiruvchilarining kelajakdagi ilmiy amaliy va yuridik faoliyatlari uchun chuqur nazariy tayyorgarlik ko‘rishlarini ta’minlaydi. Texnikum o‘z faoliyatini to bugungi kunga qadar ko‘p yillik an’analarni o‘zida saqlab kelgan holda, o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etmoqda.

Xorazm viloyat yuridik texnikumi o‘quvchilariga kariyerada muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo‘ladigan bilim va tajribalarni beradi. Ushbu texnikumda o‘quvchilar bir biridan yetuk bilimga hamda yuqori tajribaga ega bo‘lgan huquqshunos o‘qituvchilardan dars oladilar. Texnikumda har yili o‘tkaziladigan “Miss Yurist”, “Eng iqtidorli talaba”, “Idrok” kabi ko‘rik tanlovlar bu yerda tahsil

olayotgan o‘quvchilarni yanada ko‘proq izlanishga, ko‘proq bilim olishga undaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday ko‘rik tanlovlarda go‘liblikni qo‘lga kiritgan iqtidorli o‘quvchilar diplom, esdalik sovg‘alari va pul mukofotlari bilan taqdirlanadi hamda bu tanlovning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi. Bundan tashqari, Xorazm viloyat yuridik texnikumida har oyda “eng faol kitobxon” shu bilan birgalikda har hafta payshanba kuni “Zakovat” intelektual o‘yinlari tashkil etiladi.Yana bitta tanlov haqida alohida to`xtalib o`tishni lozim ,bu tanlov joriy yilda birinchi marotaba o`tkazilishi bo`lib”Jinoyat va fuqarolik ishlari bo`yicha namunaviy sud protsesi”deb nomlanib,tanlov jarayonida o`quvchi yoshlar o`zlarining sudda nutq so`zlash ,jamoada ishlash,tezkor fikrlash,tahlil qilish hamda optimal qarorlarni qabul qilish qobiliyatini namoyon etdilar. Mazkur tanlov natijalariga ko`ra jinoyat ishlari bo`yicha “Tergovchi” jamoasi va “Kriminalist” jamoasi, fuqarolik ishlari bo`yicha “Ekspertlar” jamoasi va “Liderlar” jamoalari g`oliblikni qo`lga kiritib hududiy bosqichda ishtirok etish yo`llanmasini qo`lga kiritishdi. Texnikumdagi barcha tanlov va musobaqalar adolatli shaffof tarzda o‘tkaziladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, kelgusida nafaqat Xorazm viloyati yuridik texnikumi, qolaversa, respublikamizdagi barcha yuridik texnikumlardan mamlakatimizning sud-huquq sohasiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shishga qodir yuridik kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.

PVX KOMPOZITSIYALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNI QO'LLASH

O‘rozova Sabohat Anvar qizi
Termiz davlat universiteti talabasi
E-mail: sabohaturozova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450647

Annotatsiya: Polivinilxlorid kompozitsiyalari har xil turdagi mahsulotlarni olish uchun yarimtayyor mahsulotdir. Tarkibiga qarab ular yumshoq va qattiq kompozitsiyalarga bo'linadi. PVX kompozitsiyalari issiqlik stabilizatorlari va moylash materiallarini o‘z ichiga oladi.Ular ishlab chiqarishda eng ko'p qo'llaniladi shlanglar, mebel va plitalar. Ishning maqsadi PVX kompozitsiyalarini tahlil qilish, shuningdek ularni qo'llashdir.
Kalit so‘zlar: PVX kompozitsiyalari, stabilizatorlar, plastifikatorlar, yog'och-polimer kompozitsiyasi.

ANALYSIS OF PVC COMPOSITIONS AND THEIR APPLICATION

Abstract: Polyvinyl chloride compositions are intermediates for the production of various types of products. Depending on their composition, they are divided into soft and hard ones. PVC compositions always contain heat stabilizers and lubricants, as well as impact modifiers, which are designed to absorb impact energy of plastic deformation. They are most widely used in the manufacture of hoses, furniture and tiles. The aim of the work is to analyze PVC compositions and their application.
Keywords: PVC compositions, stabilizers, plasticizers, wood-polymer composite.

Polivinilxlorid rangsiz, shaffof plastik, vinilxloridning termoplastik polimeridir. Ukislotalarga chidamli, suvda erimaydigan polimer.Polivinilxlorid kukun shaklida chiqariladi va tibbiyot, transport, qurilish, qadoqlash, o‘yinchoqlar va boshqalar kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi.[1, 2] PVX issiqlikka chidamli bo'lmagan va juda mo'rt material bo'lib, yuqori harorat ta'sirida faol holatga keladi. Polivinilxlorid (PVX) bu ko'plab kompozitsion materiallarning asosi va termoplastik polimerlar orasida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.Hozirgi vaqtda PVX 69% ni ta'minlaydi plastik qurilish bozori materiallar, quvurlar va armatura, tashqi qoplama bezatish uchun devorlar, derazalar, materiallar ishlab chiqarishda ustunlik qiladi.[3] PVX kompozitsiyalari stabilizatorlar 4-6%, modifikatorlar 4-5%, moylash materiallari 1-2%, plastifikatorlar 8-30%,titan dioksidi 2-4% va PVX qatroni 60-80%. Ular odatda plastiklashtirilgan va plastiklashtirilmagan turlarga bo'linadi.PVX

kompozitsiyalarida plastifikatorning 70% qismi mavjud bo'lib, ular "yumshoq" yoki plastiklashtirilgan deb ataladi.Plastifikatorlar polimerlarga yumshoqlik va moslashuvchanlikni beradi. PVX kompozitsiyalari issiqlik stabilizatorlaridan ham iborat moylash materiallari, turli plomba moddalari, bo'yoqlar, antioksidantlar, biotsidlar, olovni to'xtatuvchilar, antistatik moddalar,ta'sirga chidamlilik va ishlov berish uchun modifikatorlardir. Plastmassalangan PVX kompozitsiyalar yuqori haroratlar, odatda PVXning parchalanish haroratidan ancha yuqori haroratlarda qayta ishlanadi. Ular kabel va kabelsiz plastmassalarga bo'linadi.[4]Qattiq PVX kompozitsiyalarida, eritmalarning yopishqoqligi va o'lchovli barqarorligi to'ldiruvchilari, har xil materialning yuqori haroratlarda qayta ishlash qobiliyatini oshirish uchun stabilizatorlar, modifikatorlar,bo'yoqlar va moylash materiallari. Ushbu kompozitsiyalar quvurlar va panellar ishlab chiqarishda, qurilish materiallarida qo'llaniladi .PVX kompozitsiyalarida bir necha turdagi zarali jarayonlar mavjud. Birinchisi gidroxlorlash. Ikkinchisi vinilxloridning polimerizatsiyasi chiziqli molekulalarning shakllanishiga ega va yakuniy uchinchi uglerod va olefin guruhlarini hosil qiluvchi polimerizatsiya reaktsiyalari. Oxirgi guruhlar odatda beqaror, o'zini polimer zanjirining faol markazlari kabi tutadi. Jarayonga halaqit qiluvchi jarayonlarning ikkinchi turi oksidlanishdir. Oksidlovchi muhitda xlorid kislotaning chiqishi yuqoriroq bo'ladi. Bu polimerning to'yinganligiga reaksiyada erishilganligini bildiradi.allil pozitsiyalarida oksidlanish, buning natijasida polimerning beqarorligi tashqi ko'rinishi tufayli ortadi.Stabilizatorlar reaksiya ingibitorlari vazifasini bajaradi, shuning uchun ular nisbatan kichik dozalarda qo'shiladi. Ular yakuniy mahsulotning rangiga ta'sir qilmasligi kerak [5].

Antioksidantlar odatda plastifikatorlarning oksidlanishiga xalaqit beradi.Tez-tez ishlatiladigan ftalatlar va poliester plastifikatorlari PVX barqarorligiga ta'sir qilmaydi, fosfitlar va xlorli kerosinlar esa issiqlik va yorug'lik qarshiligini kamaytiradi. Yorug'likka chidamlilik di-2-etilgeksil ftalat bilan eng yaxshisidir. Ko‘p ishlatiladigan plastifikator di-2-etilgeksil ftalatga 2-etilgeksildifenilfosfatning minimal qo'shilishi plastiklashtirilgan PVX ning tashqi ta’sirlarga chidamliligini sezilarli darajada yaxshilaydi, xususan, kompozitsiyalardan yupqa plyonkalar PVX buni isbotladi.[5, 2-bet.]

Qayta ishlash qobiliyatini o'zgartiruvchi moddalar yoki qayta ishlash qo'shimchalari sopolimerlardir.PVX mos polimerlar bilan metil metakrilat.

Makromolekulyar qo'shilganda birikmalar eritmaning reologik xususiyatlarini yaxshilaydi.O'zgartirilgan qattiq PVX va yog'och unidan yuqori darajada to'ldirilgan kompozitsiyalar to'ldirish darajasi 60 g.% gacha bo'lgan kremniy dioksidi, shuning uchun eritmaning oqim tezligi oshadi 20-25%, cho'zilish mustahkamligi 15-25%, shuningdek, issiqlik barqarorligi 10-20% ga oshadi.[6]

Yuqori to'ldirilgan PVX kompozitsiyalari bir nechta shartlarni o'z ichiga oladi:

1. Eritish qulayligini ta'minlashni tashkil etish va siqish jarayonlarini bajarish. Bu jarayon eng katta oraliqda amalga oshirilishi kerak.Kuchlanishi.2.PVX tarkibidagi kompozitsion materiallar va oz miqdorda plomba moddasining xususiyatlari sezilarli darajada "polimer matritsa to'ldiruvchisi" fazalari orasidagi interfeysdagi o'zaro ta'sir darajasiga bo'ysunishi kerak. [7]

Kompozitlarni ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagilardan iborat: emulsiya polivinilxlorid va plastifikator aralashma hosil qilish uchun aralashtiriladi. 160 ° C dan yuqori haroratda ma'lum vaqtga bardosh berib, pasta quriydi, plyonka hosil qiladi. Haroratni oshirib, PVX tarkibidagi polivinilxlorid granulalari shishiradi va oxirida qattiq tarkib olinadi. Bu harorat jelatinlanish harorati deb ataladi.Erish harorati 160 dan 190 ° C gacha. [8]

Plastifikatorlarning mavjudligi dog'lar paydo bo'lishi uchun materialning yuqori aniqligiga olib keladi, shuning uchun qoplamaning yuqori qismida joylashgan plastifikatorlar miqdorini kamaytirish, shuningdek chidamlilikni oshirish kerak.Plastifikatorning kontsentratsiyasi bo'lsa kamayadi, keyin PVX tarkibining pastasining yopishqoqligi oshadi, shuning uchun u kompozitsiyalarda qo'llaniladi. Qo'shimchalarning yuqori konsentratsiyasi yopishqoqlikni kamaytiradi. Qattiq PVX kompozitsiyalarining issiqlikka chidamlilik juda yaxshi emas, bu ham sifatli sirtni olishda yomon omil. [9]

Polivinilxloridning past termal barqarorligi asosiy kamchilikdir,shuning uchun asosiy omillardan biri PVX tarkibining komponenti issiqlik stabilizatoridir. 140 ° C dan yuqori haroratda PVXni qayta ishlashga yordam beradi,bunda polimerning degradatsiyasi boshlanadi.

Kristalli ohaktoshni maydalashda PVX kompozitsiyalarida ishlatiladigan kaltsiy karbonat olinadi. Keyin hosil bo'lgan kukunni gidrofobik qilish uchun stearin kislotasi bilan ishlov beriladi.Agar zarracha kichikroq bo'lsa, sifat yuqori bo'ladi. PVX kompozitsiyalar natijasida olingan bo'r sintetik yoki kimyoviy cho'kma deb ataladigan kimyoviy reaktsiyalarda ishlatiladi. [10]

Agar dastur haqida gapiradigan bo'lsak, ma'lumki, PVX kompozitsiyalari qurilish va ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mebel profillari va panellari, deraza va eshik bloklari uchun profillar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati/ References:

1.Поливинилхлорид (ПВХ) : основные свойства, область применения. [Электронный ресурс] // ЦОП Профессия.- N1(1).-С.1-4.- URL:https://plastinfo.ru/information/articles/38 (дата обращения: 02.10.2018).

2. . Готовые жесткие ПВХ композиции: за и против. [Электронный ресурс] // Статья предоставлена Академией Конъюнктуры Промышленных Рынков .- 2016. - N1(1).-С.1-9.- URL: http://www.vashdom.ru/articles/akpr_9.htm (дата

обращения:03.10.2018).

3. O‘rozova S.A.Polivinilxlorid uchun issiqlik stabilizatorlari sifatida yangi murakkab birikmalar shiff asosiga asoslangan ba’zi oraliq d-metallarining komplekslari sintez.International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century 2022/7.36-39-betlar

4. Бурнашев А. И. Высоконаполненные поливинилхлоридные строительные материалы на основе наномодифицированной древесной муки диссертация ... кандидата технических наук : 05.23.05 / Бурнашев Айрат Ильдарович; [Место защиты: Казан. гос. архитектур.-строит. ун-т].- Казань, 2011.- 5 с.

5. Пат. 2401847 Российская Федерация МПК C08K5/101 (2006.01) C08L 27/06 (2006.01)C08J9/30 (2006.01)B32B 27/22 (2006.01) Усовершенствования, касающиеся пластификаторных композиций/ Годуин А.Д., Наерт Д. ; заявитель и патентообладатель Москва "ЕВРОМАРКПАТ".-№2007131502/04; заяв. 27.02.2009; опубл. 20.10.2010 Бюл. №29. - 2с.

6. Обзор рынка ПВХ-композиций в СНГ [Электронный ресурс] //Объединение независимых консультантов и экспертов в области минеральных ресурсов, металлургии и химической промышленности.-2005. -N1(1).-С.1-11.- URL:https://www.marketing services.ru/imgs/goods/891/rynok_PVH.pdf (дата обращения: 07.10.2018).

7. . Минскер К. С., Колесов С. В., Заиков Г. Е. Старение и стабилизация полимеров на основе винилхлорида. М., Химия, 1982. 272 с.

8. Нифталиев С. И. Изучение влияния дисперсности химически осажденного карбоната кальция на основе пвхкомпозиций[Электронный ресурс] / С. И. Нифталиев // Известия высших учебных заведений. Химия и химическая технология.—2012.—№2.—С.62-64.— https://rucont.ru/efd/421929 (дата обращения: 07.10.2018).

9. https://mplast.by/encyklopedia/vinilhlorid-syire-dlya-polucheniya-polivinilhlorida/

10. Коршак В. Б. Прогресс полимерной химии. М., Наука, 1965, 414 с.

RUS TILI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Nuraliyeva Lola Aminovna
Surxondaryo viloyati Denov tumani 81-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
rus tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450651

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida rus tili fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so‘z boradi. Shuningdek ayrim interfaol metodlarni tahlili ham keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: rus tili, dars, interfaol ta’lim, interfaol metod, B-B-B chizmasi, Klaster, Aqliy hujum.

Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilgan talablardan biri ularning ta’lim jarayoniga tadbiq etilgan, dunyo tajribasidan o‘tgan va samara bergan metodlarni yaxshi bilishi va ularni amalda qo‘lay olishidir.

Buning uchun o‘qituvchi doimiy ravishda izlanishi, o‘rganishi va o‘rganganlarini tajribada sinab ko‘rish, o‘zi ham ushbu metodlarga ijodiy yondashib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borishi zarur.

O‘quv jarayonini tashkil etishda ko‘plab ta’limiy metodlardan foydalanib kelinmoqda, ular orasida interfaol ta’lim va uning asosini tashkil etuvchi interfaol metodlar ayniqsa samarali sanaladi. Quyida rus tili fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlarning ba’zilar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

lnterfaol va interaktiv so‘zlari bir xil ma’noda bo‘lib, interaktiv so‘zi inglizcha “inter” - “birgalikdagi” va “act” - “harakatlanish” so‘zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o‘qituvchi) bilan bo‘lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta’lim - avvalo dialogli ta’lim bo‘lib uning davomida o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va kompyuter o ’zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta’limning asosini yuqorida aytilganidek interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta’limning interfaol metodlari o‘quvchilaming ulkan ta’limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o‘quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta’lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a’zolari kuchi yig‘indisidan ko‘proq (ya’ni guruh natijasi individual natijalar yig‘indisidan doimo ortiq).

Interfaol metodlarni tasnifi

O’rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	**Yangi materialni anglash metodlari**	**O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar**
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Blits-so‘rov.	Insert chizmasi. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Toifalash jadvali. Nima uchun? chizmasi. “Qan.day?” diagrammasi. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O‘n minutlik esse.

O’rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari ushbu metodlardan umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitiladigan deyarli barcha fanlarni o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lib, agar ushbu metodlar to‘g‘ri qo‘llansa albatta yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o‘qutuvchining o‘zi yuqoridagi metodlarni qo‘llash haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Erkin yozish, Klaster, Aqliy hujum, B-B-B chizmasi, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, Blits-so‘rov kabi metodlar o‘quvchilarni tez o‘ziga jalb qiladi, ularning darsdagi faolligini oshiradi. Rus tilida darslarida ushbu metodlardan o‘quvchilarning yoshiga moslagan holda dastlab sodda shaklda keyinroq murakkab shaklda foydalanish kerak. Boshlang‘ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham ushbu metodlarni qo‘llash orqali tashkil etilgan darslar samarali bo‘ladi.

Yangi materialni anglash metodlari o‘quvchilarni fanni o‘zlashtirishda o‘zaro hamkorlik, bilmagan, tushunmagan narsalarini ustozidan, do‘stlaridan so‘rab o‘rganish va o‘zgalarga o‘rgatishga qaratilgan metodlardir. Ushbu metodlar nafaqat aqliy shuningdek tarbiyaviy ahamiyati ham samarali sanaladi ya’ni ushbu metodlar, o‘quvchilaar o‘rtasida do‘stlik, halollik, mexr-oqibat kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar o‘quvchilarni yangi o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganlarini aniqlab beruvchi metodlardir. Ularni qo‘llash orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘rgangan bilimlarini taqqoslay olish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘quv jarayonida ushbu metodlarni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

* o‘rganuvchilarning o‘qishga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;

* o‘rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;

* o‘rganuvchida ijodiy ishlash ko‘nikmalari va faol fikr rivojlanadi;

* mavzu bo‘yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda til o‘rganish o‘quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O‘quvchilar xorijiy tillarni o‘zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa anashu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o‘quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo‘llanma). Toshkent - 2 0 1 3

2. https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativligini-oshirishning-muhim-omili

3. www.ziyonet.uz

TEXNOLOGIYA FANINING KASB TANLASHDAGI O‘RNI

Raxmatova Sayyora Abdugapparovna
Toshkent shahar 307-maktabning
Texnologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450659

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining hayotdagi o‘rni va rolini topishda texnologiya fanining qanchalar muhim ekanligi va bundan tashqari fanning bugungi kundagi dolzarbligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy maktablar, geografiya, texnologiya, matematika, ona tili, duradgorlik, kashtachilik, pazandachilik.

Hozirgi zamonaviy maktablarga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri yosh avlodlarga nafaqat ta’lim-tarbiya berish unga qo‘shimcha ravishda ularni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish ham muhim hisoblanadi. Maktablarda o‘quvchi yoshlarning hayotda o‘z kasblarini egallashida matematika, ona tili, geografiya, tarix kabi fanlar bilan bir qatorda texnologiya fani muhim hisoblanadi. Hosh shu o‘rinda bir savol tug‘uladi, texnologiya fani o‘zi qanday fan va uning yoshlarni kasb tanlashlarida qanday o‘rni bor? Har bir inson uchun keajak uchun kasb yoki hunar tanlash hayoti davomida qiishi kerak bo‘lgan eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Chunki o‘quvchilarni tanlangan kasblari ularning kelajagi bilan bog‘liq hamda yashash tarziga ham ta’sir qiladi. Inson o‘zi tanlagan kasb yoki hunaridan zavq olsagina, qilgan ishidan ko‘ngli to‘ladi, kasb-koriga mehr uyg‘onadi va o‘z kasbining chin manoda ustasiga aylanadi. Barchamizga ma’lumki, asosan bolalarda kasbga bo‘lgan muhabbat va qiziqish maktab davrlarida uyg‘onadi. Barcha o‘quvchilar ularga ota-onasi yoki ustozlari tomonidan berilayotgan maslahat va o‘gitlardan kelib chiqib o‘ziga kasb yoki hunar tanlaydilar. Ba’zi o‘quvchi yoshlar fizika, matematika, kimyo, biologiya kabi aniq va tabiiy fanlariga qiziqsa, boshqalari ona tili, adabiyot, tarix, yoki huquq faniga qiziqadi. Masalan, matematika faniga qiziqqanlar kelajakda bankir yoki matematika o‘qituvchisi bo‘lishi mumkin. Huquq faniga qiziqadigan o‘quvchilar huquqshunos, advokat, prokuror, sudya bo‘lishi mumkin. Fizika faniga qiziqadigan o‘quvchilar muhandis, chet tillarga qiziqadigan o‘quvchilar tarjimon, elchi, gid bo‘lib ishlashi mumkin. Ilgari davrlarda mehnat darsiga 2-3-darajali fan sifatida qaralardi va ko‘pchilik ota-onalarning nazarida bu fan farzandiga naf keltirmaydigandek tuyulardi va ularning nazarida bu fan farzandiga qog‘oz va qalam yordamida gul yasashni o‘rgatishdan iborat degan noto‘g‘ri qarashar mavjud edi.. Endilikda bu fan “Texnologiya” deb nomlanib, darslar oliy malakali o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan bo‘ldi. Bu fan asosan boshlang‘ich sinfni bitirgandan so‘ng 5-sinfdan

boshlab 9-sinfgacha, o‘g‘il bola va qiz bolalarga ajratigan holda o‘qitiladi va asosan hayotda har bir kishi uchun zarur bo‘ladigan hunarlar haqida o‘quvchilarni tanishtiradi. Misol uchun o‘g‘il bolalarga duradgorlik, yog‘ochdan biror bir buyum yasash bo‘sa, qizlar uchun kashtachilik, pazandachilik kabi uy ro‘zg‘orda kerak bo‘ladigan mashg‘ulotlar haqida ko‘nikmalar beriladi va shu bilan birgalikda o‘quvchilar dars jarayonida olgan ko‘nikmalarini ishlab chiqarish amaliyotida ham qo‘llab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ya’ni bir so‘z bilan aytganda berilgan nazariy bilimlar amaliy darslar bilan mustahkamlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

-- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;

-- texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

-- texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;

-- texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

-- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

-- buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

-- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya fani predmeti boshqa fanlardan umuman farq qiladi. Masalan, fizika yoki matetmatika fanlari o‘n yillar davomida yangi bilimlar bilan boyitilib boriladi. Texnologiya fani bo‘yicha esa kundan kunga yangiliklar ko‘paymoqda. Ishlab chiqarish sohasiga ko‘plab yangi texnologiyalar joriy etiladi. Shuning uchun bu fan o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilishi kerak deb hisoblayman. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan yaqin kelajakda o‘quvchilarni kasbiy ta’limga yo‘naltirish maqsadida superustaxonalar, bolalar texnoparklari ochish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari texnologiya deganda biz faqat yog‘och yoki kashtachilikni tushunmasligimiz kerak. O‘quvchilar kompyuter va vibrostendlar bilan jihozlangan bu maskanlarda kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish bilan birga robo, kosmo, nano, bio yo‘nalishlarida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar. Chunki robot texnika ekan nima uchun uni yasashni usulari va yo‘l yo‘riqlari texnologiya fanida o‘tilmasligi kerak ekan. Texnologiya bu keng tushuncha va bu fanning o‘qitish davomida murabiy o‘zining fantaziyasini va o‘quvchilarni qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim bershlari darkor. Bu fanning yaxshi

o‘zlashtirgan o‘quvchidan eng zo‘r duradgor usta ham, yoki o‘z davrining buyuk ixtirochisi, qizlardan esa buyuk dizayner, yoki qo‘li shirin qandolatchi ham chiqishi mumkin. Asosiysi bu bolaning o‘z qiziqishiga bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki, hurmatli ota-onalardan fanzandlaringizni eng ko‘p pul ketiradigan sohaga emas balki o‘zi qiziqadigan sohaga yo‘naltirishlaringizni iltimos qilib qolaman. Farzandingizni o‘zi qiziqmasa ham sen bankir yoki huquqshunos bo‘lishing kerak deb majburlash bu nazarimda nato‘g‘ri balki undan zo‘r mebel ustasi yoki ixtirochi olim chiqar. Bir o‘ylab ko‘ringga Alber Enshteynning ham ota-onasi farzandini bankir qilmoqchi bo‘lganida dunyo bita zo‘r olimdan ayrilgan bo‘lmasmidi. Demoqchimanki bola o‘z qiziqqan sohasi bo‘yicha bilim olsa yaxshi natijaga erishadi. Farzandingiz ixtirochilikka qiziqsa unga fizikani emas huquqni o‘qi deb majburlashiningiz nato‘g‘ri deb o‘ylayman. Texnologiya fani esa o‘quvchilarning yaxshirin istedotlarini ochib beradigan fandir va yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda fan darsariga yanada ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilishi kerak deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, O.T.To‘raeva, K.M.Xoliqberdiev “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 1998 yil

2. X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

3. R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, “Mehnat tahlim metodikasi” Toshkent

ПЕНИТЕНЦИАР ТИЗИМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ

А.А. Шамансуров
ю.ф.н., доценти, Турон ФА академиги
Чирчиқ Давлат педагогика университети доценти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450665

Аннотация: жазони ижро этиш тизимини ислоҳ қилишнинг элементларидан бири бу ижтимоий хизматни яратиш бўлиб, унинг ёрдамида жазони ижро этиш муассасалари олдида турган турли мақсад ва вазифалар халқаро стандартларга мувофиқ ҳал этилади. Ушбу вазифалар, сиз билганингиздек, жуда кўп қиррали ва мураккаб бўлиб, бу муаммонинг турли жиҳатлари бўйича олимлар ва амалиётчиларнинг турли нуқтаи назарларини келтириб чиқаради. Албатта, ҳар бир нуқтаи назар эътиборга лойиқдир, ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ва бизнинг шароитимизга нисбатан ишлатилиши мумкин бўлган баъзи конструктив дақиқалар.

Калит сўзлар: маҳкум, қонунийлик, жазони ижро етиш муассасалари, жазони ижро етиш тизими, ижтимоий хизмат, рецидивизм

Аннотация: Одним из элементов реформы пенитенциарной системы является создание социальной службы, с помощью которой решаются различные цели и задачи, стоящие перед учреждениями по исполнению наказаний в соответствии с международными нормами. Задачи эти, как известно, достаточно многогранны и сложны, что порождает различные точки зрения ученых и практиков на разные аспекты проблемы. Безусловно, внимания заслуживает каждая точка зрения, те или иные конструктивные моменты, которые можно использовать с учетом специфики, и применительно к нашим условиям.

Ключевые слова: Осужденный, законность, учреждения по исполнению наказаний, пенитенциарная система, социальная служба, рецидивная преступность

Abstract: One of the elements of the reform of the penitentiary system is the creation of a social service, with the help of which various goals and tasks facing penitentiary institutions are solved in accordance with international standards. These tasks, as you know, are quite multifaceted and complex, which gives rise to different points of view of scientists and practitioners on different aspects of the problem. Of course, every point of view deserves attention, certain constructive moments that can be used taking into account the specifics, and in relation to our conditions.

Keywords: Convict, legality, penal institutions, penitentiary system, social

service, recidivism

Жазони ижро этиш тизимини ислоҳ қилишнинг элементларидан бири озодликдан маҳрум қилиш жойларида ижтимоий хизматни яратишдир. Ушбу хизматлар ёрдамида жазо институтлари олдида турган турли мақсад ва вазифалар ҳал этилмоқда. Бу масала бўйича олимлар ва амалиётчилар ўртасида турли нуқтаи назарлар мавжуд. Биринчи нуқтаи назар, масалан, Эстонияда ижтимоий ишчига иш жараёнида "тарбия", "қайта тарбиялаш", "тузатиш" сўзларини талаффуз қилиш тақиқланган. Катта инсонни ўзгартириш мумкин эмас. Улар қамоқхонада бўлиш жараёни ўқув жараёни деб ҳисоблашади. Агар қамоқда ўтирган вақт давомида одам мамлакатнинг қонунга бўйсунувчи фуқароси учун зарур бўлган билимларни олса, бу қамоқхона жазони ижро этиш вазифаси билан бир вақтда ўз вазифасини бажариши учун етарли[1].

Иккинчи нуқтаи назар шуни кўрсатадики, бугунги кунда биз қамоқхонага ўзига хос коллектор, ижтимоий янгиланиш тизими сифатида қарашимиз керак, бу бизга бугунги кунда давлат ва жамиятда мавжуд бўлган табиий салбий чиқиндиларни қайта ишлашни таъминлаши керак. Бу ҳам жамоат хавфсизлиги, ҳам инсонпарвар ва олижаноб манфаатлар учун мақсадга мувофиқдир. Ва агар хоҳласангиз, бу Худога маъқул, чунки биз бу одамларга янги ҳаёт бошлаш имкониятини беришимиз керак. Уларнинг ўзлари бизнинг ёрдамисиз ҳеч қачон табиий равишда эриша олмайдиган имконият. Агар улар бунга қодир бўлсалар, улар қамоқда бўлмайдилар. Улар бугунги кунда жамиятнинг ёрдамини талаб қилмоқдалар, ҳатто моддий эмас, улар тақдирларида шерикликни талаб қилмоқдалар, улар аввалги ҳаётларини англаш, тўғри баҳолаш, янги қадриятларнинг таъмини тушуниш учун ёрдамга муҳтож, қоида тариқасида, моддий эмас, балки маънавий. Маънавиятнинг етишмаслиги, агар хоҳласангиз, фалсафий асос, инсоннинг ахлоқий ва расмий-ҳуқуқий қуллаши учун зарурий шартдир. Бугун биз қамоқхона ҳақида ижобий жамиятга кира олмаган, маънавиятга кира олмаган аҳолининг ахлоқий тикланиш воситаси сифатида гапиришимиз керак[2].

Профессор В. Трубников нуқтаи назаридан колониялар ва қамоқхоналар жиноятчиликни камайтиришга фақат маҳкумларнинг жамиятдан ажратилишини таъминлайдиган даражада ҳисса қўшиши керак. Бу позиция бизни қайта тарбиялаш, қайта қуриш, шахсни қайта тиклаш мавзусидаги турли хил фантазиялардан қутқаради. Озодликдан маҳрум қилиш жойлари жиноий фаолиятнинг олдини олиш, жамият ва фуқароларни ижтимоий хавфли ҳаракатлардан ҳимоя қилиш учун мўлжалланган. Ва бундай мулоҳазаларга асосланиб, у муассасалар фаолиятининг асосий мезони рецидивизм эмас, балки жазони ўтаётган шахсларни изоляциялашни самарали ташкил этиш, тартибни сақлаш, маҳкумларни жамоатчилик билан алоқалар тизимига киритиш учун

шароит яратиш ва уларнинг хатти-ҳаракатлари учун жавобгарлигини ривожлантириш бўлиши керак, деб ҳисоблайди. Шуни таъкидлаш керакки, бундай позиция нафақат назарий аҳамиятга эга, балки жуда муҳим амалий аҳамиятга эга. Бундай вазиятда отряд бошлиғи ва маъмуриятнинг бошқа ходимларининг роли ташкилий ва маъмурий-бошқарув функцияларини бажаришга камаяди. Маҳкумлар билан ишлашга қодир ва тайёр бўлган эътирофчилар, махсус танланган ўқитувчилар ва психологлар маҳкумларга тарбиявий таъсир кўрсатиши керак. Бир қатор мамлакатларда қамоқхона ва жамият ўртасида тирик кўприкни ифодаловчи ижтимоий ишчилар институти мавжуд. Улар маҳкумлар билан учрашадилар, жамғармаларни қандай тасарруф этиш бўйича маслаҳат беришади, петиция ёзадилар ва ҳоказо.

Бизнинг фикримизча, таклиф қилинган индивидуал тавсиялар ва билдирилган фикрлар янги эмас ва жазоларни ижро этиш амалиётида қўлланилади. Бироқ, улар батафсилроқ кўриб чиқишни талаб қилади. Биринчи нуқтаи назардан Ю .Илченко, биринчи навбатда, "тарбия", "қайта тарбиялаш", "тузатиш" сўзларини қатъиян тақиқлаш, катталар қайта тиклана олмаслиги сабабли нотўғри ва амалий эмаслиги сабабли тўлиқ рози бўлолмайди, чунки вояга етмаганлар, кўплаб ёшлар жазо ўтамоқда. Жазо муассасалари биринчи марта маҳкумлар, бу ерда Г. Радовнинг иккинчи нуқтаи назаридан билдирилган таклифларга мисол келтириш ўринлидир, улар ўз тақдирларида иштирок этишни талаб қиладилар, уларга аввалги ҳаётларини тўғри баҳолашга ёрдам бериш керак, янги қадриятларнинг, айниқса маънавий табиатнинг таъмини тушуниш. Иккинчидан, маҳкумни тузатиш вазифаси қонунда назарда тутилган бўлиб, бунинг учун инсон онгини, шунингдек, қарашлари, эътиқодлари, ғоялари, хулқ-атворини яхши томонга ўзгартириш учун комплекс чора-тадбирларни қўллаш зарур деб ҳисоблайди[3].

Учинчидан, озод қилинганидан кейин ислоҳот қилмаган маҳкум қонунга бўйсунувчи фуқаро бўлиши даргумон. Бинобарин, қамоқхоналарда биз илгари айтиб ўтган барча атамалардан фойдаланиш зарур, бундан ташқари, ислоҳот қилган шахслар ҳам қамоқдан озод қилинади, улар кейинчалик қонунга бўйсунувчи фуқароларга айланади, лекин афсуски, уларнинг сони унчалик кўп эмас биз хоҳлагандек. Учинчи нуқтаи назарни ҳисобга олган ҳолда, қуйидаги хулосалар чиқариш мумкин: асосан тавсияларни қўллаб-қувватлаган ҳолда, Профессор В. Трубников рецидивизмни жазо институтларининг ижобий фаолияти мезони сифатида кўриб чиқмаслик керак деб ҳисоблашда мутлақо тўғри эмас деб ҳисоблайман. Рецидивизмни кўриб чиқиш керак, аммо жазо муассасалари фаолиятини баҳолаш мезонларидан бири сифатида, масалан, етакчи хорижий давлатларнинг қамоқхоналарида, маҳкумлар билан жазо муассасасида бўлган биринчи кундан бошлаб ва бутун қамоқ муддати

давомида, уларнинг озод қилинишини тайёрлаш учун турли хил ишлар олиб борилади, бу унга озод қилинганидан кейин эркинликдаги ҳаётга мослашишга ва ҳуқуқбузарликларга йўл қўймасликка имкон беради – бу, ўз навбатида, рецидивизмни камайтиришга ҳисса қўшади. Бизнинг фикримизча, маҳкумни озод қилиш билан жамиятнинг вазифалари тўхтамаслигини назарда тутувчи халқаро нормалар Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига маъқулланиши ва амалга оширилишига лойиқдир. Шу сабабли, озод қилинган маҳбусларга самарали ғамхўрлик қилиш, улар қурбон бўлган хурофотларга қарши курашиш ва уларни жамиятда қайта ишлашга ёрдам берадиган давлат ёки хусусий органларга эга бўлиш зарур[4] . Ушбу муносабатда, халқаро Полша-Дания нодавлат ташкилоти иши, Ҳ. Ҳ. Кофеда номидаги ижтимоий хизмат институти, Седльцада «ердам узи учун ердам» деган дастур ташкил этилган. Амалда, бу ҳаётнинг чеккасида ёрдамга муҳтож бўлган одамни қўллаб-қувватлашга қаратилган кенг кўламли касбий, таълим, социотехник, терапевтик, ёрдамчи психологик ва ҳуқуқий тадбирларни амалга оширишдан иборат. Бу ёрдам унга қийинчиликларни мустақил равишда енгишга ёрдам беради. Иш иккита асосий дастур бўйича амалга оширилади:

- таълим;
- ёрдамчи-васийлик.

Ўқув дастурига қуйидагилар киради: 1) бепул профессионал компьютерга техник хизмат кўрсатиш курслари компьютер фанлари бўйича тренинг.

2) инглиз тилини бепул ўқитиш.

Ёрдамчи-васийлик дастурига қуйидагилар киради:

1) зўравонлик қурбонлари, шу жумладан оиладаги зўравонлик қурбонлари учун маслаҳатлар. Зўравонлик қурбонлари бўлган аёллар учун шахсий ёрдам ва терапия гуруҳи мавжуд.

2) алкогол ва гиёҳвандликка чалинганлар учун маслаҳатлар (асосан ёшлар учун).

3) юридик маслаҳат.

4) ишонч телефони.

Қийин ҳаётий вазиятларда бўлган одамлар учун таълим, ёрдам, маслаҳат ва терапиянинг барча шакллари бепул. Улар қуйидаги гуруҳлар учун мўлжалланган: ишсиз ёшлар касб-ҳунар мактаблари битирувчилари, ўрта мактаблар ва таълимсиз ёшлар: ишини йўқотган ва қайта тайёрлаш учун маблағ етишмайдиган одамлар;

собиқ маҳбуслар, муддатидан олдин озод қилинган ёки шартли равишда озод қилинган шахслар; ичкиликбозлар ва гиёҳвандлар; уйсизлар; зўравонлик қурбонлари; патологик муҳитда яшовчи одамлар; қашшоқликда яшовчи одамлар[5].

Barcha fanlar kabi tibbiyotga oid mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ham innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar keng tadbiq etilmoqda. Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Ta’lim oluvchilarda novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Mamlakatimizda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta’lim muassasasida o‘quv jarayoni metodik ta’minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lib qoladi. Ta’lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta’limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta’lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta’lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi: fan sohalarini axborotlashtirishni; o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni; integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni; ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib

keladi. Shuning uchun ham boshqa fanlar qatorida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda elektron darsliklardan, videolavhalardan va o‘qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish zarur.

Dars jarayonlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, kreativlik (ijodiy yondashuv)orqali ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishga sabab bo‘ladi. Professional ta’limning maqsadi, mustaqil fikrlash, jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy masalalarga tizimli qarash qobiliyatiga ega, ma’lum o‘zgarishlarga nisbatan mustaqil o‘z munosabatini bildira oladigan, o‘z mustaqil biznesini yurita oladigan, ma’lum kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kichik mutaxassislarni tayyorlashdir. Professional ta’lim tizimida malakali mutaxassislarni tayyorlash sifati ko‘p jihatdan ularda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarga va ta’lim jarayoniga bo‘liq.

Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida innovatsiya termini kreativlik termini bilan o‘rin almashmoqda.

Kreativlik - bu ijodiy yondashuvdir, zero bugungi kunda ta’lim muassasasi pedagoglaridan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, kreativ yondoshuv malaka ko‘nikmasini ham talab qilinmoqda, ya’ni ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan barcha usullar va metodlar to‘liq o‘zlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llash bo‘yicha ijodiy –(kreativ) yondashish talab etiladi.

Kreativlikning (ijodiy yondashuv) asosiy mezoni quyidagilar hisoblanadi:

1.Mavzuning murakkabligi

2.Ma’lumotlar hajmi

3.o‘quvchilarning individual xususiyatlari

4.o‘qituvchining mahorati

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan har bir usul, metodni ijodiy yondashib qo‘llash –bu kreativlikdir. Hozirgi kunda talabalarni ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi ta’lim jarayonida interfaol usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shunday ekan bugungi kun pedagoglari ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarga kreativlik(ijodiy yondashuv)bilan yondashishlari talab qilinadi. Zero hozirgi zamon ilm-fan, texnika rivojlanib borayotgan bir paytda ta`lim sohasida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishi tabiiydir. Bu ta`limda sifat va samaradorlikka erishishning bosh omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonuni

3. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.,”Moliya”, 2003.

4. Ismailova Sh.K. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash shartlari. Urganch, UrDU nashriyoti, 2009.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDAGI MAQOLLARNING PIRLS TADQIQOTI DARAJASIDAGI TAHLILI VA AHAMIYATI

Bakirova Umida Axparaliyevna
Toshkent viloyati Angren shahar 6-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450735

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darsliklaridagi maqollarning pirls tadqiqoti darajasidagi tahlili haqida yozilgan bo‘lib, unda PIRLS xalqaro tadqiqotida qo‘llaniladigan o‘qishning ikki turi va boshlang‘ich sinf darsliklaridagi maqollar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, darsliklaridagi maqollar PIRLS tadqiqoti darajasida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, o‘quvchi, xalqaro, matn, ta’lim, maqol, tahlil, xalq og‘zaki ijodi, pand-nasihat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro PIRLS tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim oluvchi yoshlarining ishtirok etishi juda ham mas’uliyatli va quvonarli jarayon va bu masala ta’lim sohasidagi bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. O‘zbekiston Respublikasining kelajak ravnaqi o‘sib kelayotgan barkamol avlodning intellektual ongini shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bolaning ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbat, g‘urur, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglashni singdirib borish lozim. Bola qalbi go‘yo yozilmagan oq qog‘oz kabidir. Unga nimalarni yozish, qanday to‘ldirish biz kattalarga bog‘liqdir. Kattalar, o‘qituvchilar ushbu ma’suliyatni his qilishlari bilan bir qatorda, yosh bolaga ta’lim-tarbiya berishda bolaning oq qog‘oz kabi pok qalbini yaralab qo‘ymaslikka ma’suldirlar. Bizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim uchun asos, tayanch vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinfda o‘zlashtiriladigan barcha materiallar bosqichma-bosqich takomillashib va murakkablashib boradi. Bu davr uchun mo‘ljallab kiritilgan manbalar har tomonlama puxta o‘ylangan, kichik yoshdagi o‘quvchilarining psixologik, fiziologik, pedagogik va boshqa jihatlarini qamrab oladi. Mana shu jihatdan olib qaraganda, darsliklarni o‘rganish faqatgina o‘quvchi tomonidan amalga oshirilmasdan, har bir mavzu o‘qituvchi rahbarligida o‘qib o‘rgatiladi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi va tarbiyachilardan juda katta ilmiy salohiyat, yuksak ma’naviyat talab etadi. Shu bilan birgalikda muntazam ravishda yoshlar ongi va qalbida milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni anglab yetish, hurmat qilish hissini uyg‘otish, o‘zlikni anglashni shakllantirish vazifasi turadi. PIRLS tadqiqoti jarayonida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning

quyidagi ikki turi o‘rganiladi:[3] 1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish. 2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish. Xalq og‘zaki ijodi janridan biri bo‘lgan maqollarni o‘rgatish ikkinchi tur ya’ni matn mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qishni takomillashtirishga asos bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga o‘rgatib boriladi. Boshlang‘ich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari berilgan. Ona tili darsliklarida ko‘proq xalq maqollari mashqlar tarkibiga singdirilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda darsliklarga kiritilgan maqollar tushunilishi oson va komillikka da’vat etuvchidir. Mavzu o‘rganilayotganda o‘qituvchining vazifasi mavzuni o‘rgatish bilan birga xalq og‘zaki ijodi, shu jumladan, maqol janri haqida boshlang‘ich ma’lumot berib borishdir. Berilgan maqollar o‘qituvchi rahbarligida avval ifodali qilib o‘qiladi va o‘quvchilar bilan birgalikda ushbu maqollarning ma’nosi o‘rganiladi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovushlilar takrori bo‘ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan ajoyib so‘z ustalarining o‘lmas satr va hikmatli so‘zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning „Mahbub ul-qulub” asarida aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: „Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur", „Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz" va boshqalar.

O‘quvchilar savod o‘rgatish davridayoq maqollarni o‘rganib boradilar. «Alifbe» darsligida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ular mavzu g‘oyasini o‘quvchilarga lo‘nda va aniq yetkazish uchun xizmat qiladi. Amaldagi R.Safarova boshchiligidagi mualliflar tomonidan tayyorlagngan Alifbe darsligidan «Bola odobi bilan ko‘rkam», «Bilim boylik kaliti», «Oltin olma, duo ol», «Elda bori –senda bor», «Hunar – hunardan unar», «Har kim ekanin o‘rar», «Elga hurmat, oily himmat», «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Oldin o‘yla, keyin so‘yla» kabi maqollar o‘rin olgan bo‘lib, bu kabi maqollar o‘quvchilarni maktabga kelgan ilk kunlaridanoq mehnatsevarlikka, ma’naviyatga, odob-axloqqa chorlaydi.

2-sinf “O‘qish kitobi”da maqolga quyidagicha ta’rif berilgan: “Maqollar xalq og‘zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko‘rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo‘lib, pand-nasihat mazmunini ifodalaydi”.

Xalq og‘zaki ijodi asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o‘qish fani muhim rol o‘ynaydi. Bolalarni xalq og‘zaki ijodi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammosini o‘rganish va tahlil etish bu boradagi qator omillarni o‘rganishni talab etadi. Bolalarning yoshlariga mos xalq og‘zaki ijodiga oid asarlar vositasida tarbiyalash bola nutqini zahirasi va tafakkur darajasini yuksaltiradi.

Boshlang‘ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o‘qish va o‘rganish,

tahlil qilish asar o‘qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani tushunmay turib, maqolning ma’nosini izohlash qiyin bo‘ladi. Mualliflar ham maqol ma‘nosini asar voqealari bilan izohlamoqchi bo‘ladilar.

1-2-sinfda boshlab maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, matndagi izohtalab so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari, ko‘chma ma’noli, qarama – qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma’nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan, 2-sinf o‘qish darsligida “Ona yurtim – oltin beshigim” bo‘limida har bir she’r va matndan so‘ng Vatan mavzusidagi maqollar, Mana shu maqol matni ustida ishlaganda: «Yurt» so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?, «Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?», «Beshik oltindan bo‘ladimi?» Oltin kuz – hosiling yuz” bo‘limida esa kuz mavzusidagi maqollar berilgan kabi savollar berish yo‘li bilan o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish ustida ishlanadi. Bu maqollar o‘quvchilarga mavzuni yaxshi eslab qolishga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi va nutq madaniyatining shaklla nishida, fikrlash doirasini o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3-4-sinflarda maqollar uchun alohida soat ajratilgan va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o‘rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to‘g‘ri va ongli o‘qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so‘zning va yaxlit maqolning ma’nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O‘quvchilar o‘qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so‘zlarni o‘zi mustaqil topa olish ko‘nikmasini egallashi, ular yordamida o‘qilgan asarlar yuzasidan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rganishlari zarur.

Boshlang‘ich sinf o`quvchilarga maqollarni innovatsion metodlardan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishi mumkin. Quyida shunday metodlardan bir nechtasini ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

1. “Maqolni davom ettir” ta’limiy o‘yini. Bu metodni o‘qituvchi bir necha ko‘rinishda o‘tkazishi mumkin: og‘zaki, tarqatma materiallar yoki slayd ko‘rinishida.

Yaxshi yigit yurt tuzar,
Yomon yigit… *(yurt buzar)*
Mehnat qilib topganing,
Qand-u… *(asal totganing)*
Qush qanoti bilan tirik,
Odam …*(mehnati bilan)*

2. “Maqollarni to‘g‘ri joylashtir” metodi. Bu metodda o`qituvchi sinfni guruhlarga bo‘lib oladi va konvertni tarqatadi. Konvertlarda so‘zlar yozilgan kartochkalar bo‘lib, ularni joylashtirib maqol hosil qilishlari kerak bo`ladi.

Zo‘ri, qo‘rir, yigitning, yurt. (*Yigitning zo‘ri yurt qo‘rir.)*

Boshda, yoshda, emas, aql. *(Aql yoshda emas, boshda)*

3. Maqollar yuzasidan rasmli rebus yechish. Rasmlardagi narsa-buyum nomini yozish orqali maqol hosil qiladilar.

(Yoz fasli rasmi) mevasi – *(qish fasli rasmi)* xazinasi.

Ilmli *(1000)* yashar, ilmsiz *(1)* yashar.

4. Sinfni guruhlarga bo‘lish va ularga turli yo‘nalishdagi maqollarni topishlarini aytish. Masalan:

1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan ayting.

2-guruh. Vatanparvarlik haqidagi maqollardan ayting.

3-guruh. To‘g‘riso‘zlik haqidagi maqollardan ayting.

4-guruh. Do‘stlik haqidagi maqollardan yod ayting.

Xulosa qilib aytganda, maqollarni o‘rganish bola tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Asrlar davomida avloddan-avlodlarga o‘tib kelayotgan buyuk ajdodlarimizning hikmatli so‘zlari va xalqimizning hayotiy tajribasi asosida yaratilgan xalq og‘zaki ijodiyotini, xususan maqollarni o‘quvchilarga tushunarli qilib yoritib berishimiz lozim. Milliy qadriyatlarimizni yosh avlodlarga munosib tarzda yetkazish esa bizning muqaddas vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyoti, 2005-yil

2. G‘afforova T. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun. “Sharq” nashriyoti, 2018-yil

3. Mirzayev T., Musaqulov A. «O‘zbek xalq maqollari» - T.: 2005.

4. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami. O‘quvuslubiy qo‘llanma. Samarqand XTXQTMOHM. -2019

5. Safarova R va b. Alifbe darsligi. - T.: O‘qituvchi, 2019 .

6. www.ziyonet.

MARKAZIY OSIYO – XALQARO MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA AR-ROZIYNING KIMYOGA OID ASRLARI VA ULARNING FANDAGI AHAMIYATI

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha)
1-bosqich magistranti
E-mail: abdurahimovjavlonbek11@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450741

Annotatsiya: Ushbu maqolada ar-Roziyning kimyo tarixiga oid asarlari, ularning soni va nomlari, hozirgi kunda saqlanib qolganlari, ular kimlardan tomonidan o‘rganilganligi va akademik U.I.Karimovning mana shu asarlarni o‘rganishdagi o‘rni to‘g‘risida. Shuningdek, Roziy asarlarining zamonaviy laboratoriya va kimyo sohasiga qo‘shgan hissasi.

Kalit so‘z va iboralar: Alkimyo, ar-Roziy, qo‘lyozma, Kitob al-asror, Ruska, Steplton, Alkimyo san’ati bo‘yicha o‘n ikki kitob (o‘n ikki kitob), Gettingen, Eskurial.

Hozirda biz «zamonaviy” deb nomlovchi dunyo dech kelayotgan epidemiyalagik muammolarni bartarf etishga ojiz qolmoqda. Bu bizni ilm-fanni rivojlantirish bilan bir qatorda, tarixga yaxshiroq nazar tashlashga undaydi. Shu sababli, bir tarixda yaratilgan kimyo va tibbiyotga oid manbalarni chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Hayotining qatta qismini shu sohalarga bag‘ishlagan sharqning buyuk qomusiy olim, tabib va alkimyogari Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo al-Roziy (865-925) o‘z hayoti va faoliyati ko‘plab asarlar yozib qoldirgan. Ibn an-Nadim uning 115 ta kitobi va 30 ta risolalarining nomlarini sanab, ular qatoriga olimning 19 ta kimyoviy asarlarini ham kiritgan. Shu tariqa, Roziy asarlarining soni 164 taga boradi. Beruniy Roziyning barcha asarlarini fanlar bo‘yicha guruhlarga ajratadi. Tabobat bo‘limida 56 ta asari ro‘yxatga olingan, (hammasi bo‘lib beruniy 184 ta nomni keltirgan). Ibn al-Qiftiy roziyning 133 ta asari ro‘yxati bilan cheklangan. Eng keng ro‘yxat Ibn Abu Usaybiya tomonidan berilgan, Uning ro‘yxatda Roziy asarlarining soni 236 taga yetgan. Brokkelmanning aytishicha, ulardan faqat 61 tasi saqlanib qolgan. Yuliy Ruska Ibn an-Nadimning «Fixrist», Beruniyning «Risola», Ibn Abu Usaybiyaning «tabiblar tarixi» va Roziyning nashr etilgan bir maqolasiga asoslanib, Roziyning kimyoga oid 26 ta nomdan iborat asarlar ro‘yxatini tuzadi:

1. «Kitob al-madhal at-ta’limiy» – ([Alkimyoni] o‘rganishga kirish kitobi)».
2. «Kitob al-mahdal al-burhoniy» – («Ishonchli kirish kitobi»). Ushbu asar yana

«kitob ilal al-ma’odin» – «Minerallarning [hosil bo‘lishi] sabablari haqida kitob» nomi bilan ham ma’lum bo‘lgan.

3. «Kitob isbot as-san’a var-radd ala munkirixa» – («[Alkimyo] san’tini asoslash va uni inkor etuvchilarga raddiya berish»).

4. «Kitob al-hajar» – («Tosh haqidagi kitob»).

5. «Kitob at-tadbir» – («amal haqidagi kitob»).

6. «Kitob al-iskir» – («Iskir haqidagi kitob»).

7. «Kitob sharaf as-sino‘a» – («[Alkimyo] san’tining sharafliligi haqida kitob»).

8. «Kitob at-tartib» – («[Ish] tartibi haqidagi kitob»).

9. «Kitob at-tadibir» – («Amallar haqidagi kitob»).

10. «Kitob ash-shavohid» – (‘«’) – («Shohidliklar kitobi»).

11. «Kitob al-muhan» – («Namunalar haqidagi kitob»).

12. «Kitob sirr al-hukamo va hiyalihim» – («Donishnamdlarning sirlari va ularning nayranglari haqida»).

13. «Kitob al-asror» – («Sirlar kitobi»). Beruniyda: «Kitob as-sirr» – («Sirlar kitobi»).

14. «Kitob sirr al-asror» – («Sirlar siri kitobi»). Beruniyda esa «Kitob sirr as-sirr» – («Sirlar siri kitobi»).

15. «Kitob at-tabvib» – («Boblarga bo‘lish kitobi»).

16. «Kitob ar-radd ala-l-Kindiy fi raddihi ala-s-sino‘a» – («Al-Kindiyning kimyo san’atini rad etishga nisbatan raddiya kitobi»).

17. «Kitob al-ahjor» – («Toshlar haqida kitob»).

18. «Kitob risolat al-xossa» – («Mutaxasisga noma kitobi»).

19. «kitob al-haraj al-asfar» – («Sariq toshlar haqida kitob»).

20. ‘Kitob risoil ul-muluk» – («Podshohlarga nomalar kitobi»).

21. «Kitoban fi-t-tajorib» – («Tajribalar haqida ikk kitob»).

22. «Risola ila Qoin» – («Qoinga noma»).

23. «Munyat al-mutamanniy» – («Istovchining istagi»).

24. «Risola ili-l-vazir al-Qosim ibn Ubaydulloh» – («Vazir al-Qosim ibn Ubaydullohga risola»).

25. «Kitob fi-r-radd ala Muhammad ibn al-Lays ar-Rasoiliy fi raddihi ala-l kimiyoiyyin» – («Muhammad ibn al-Lays ar-Rasoiliyning kimyogarlarni rad etishiga raddiya kitobi»).

26. «Kitob fi anna sino‘at al-kimyo aqrab ila-l-vijud al-mumtani»’ – («Alkimyo san’ati imkonsizlikdan ko‘ra, haqiqatga yaqinroqligi haqida kitob»)[2].

Ulardan bizga 4 tasigina yetib kelgan. Ular «Kitob al-madhal at-ta’limiy»([Alkimyoni] o‘rganishga kirish kitobi), «Kitob ash-shavohid» (Shohidliklar kitobi), «Kitob al-asror»(«sirlar siri») va «Kitob sir al-asror»(«Sirlar siri kitobi»)

[2] U.I.KARIMOV. AR-ROZIYNING NOMA’LUM ,,SIRLAR SIRI KITOBI’’. – Toshkent, 2020. B. 52-54.

kitoblari. 1910-yili nashr qilingan Steplaton Azoning «Eramizning o‘n uchinchi asriga doir kompilyatsiyalar» maqolasida Hindistonning Rampur viloyatidagi Navob kutubxonasida alkimyoga oid risolalarning yig‘ma jildi topilganligi haqida ma’lum qilingan. Ushbu yig‘ma jild orasida ar-Roziyning «Kitob al-madhal at-ta’limiy» va «Kitob ash-shavohid» asarlarining noyob qo‘lyozmalari, «Alkimyo san’ati bo‘yicha o‘n ikki kitob»ning birinchi va to‘qqizinchi kitoblari bor edi.

«Kitob ash-shavohid» (Shohidliklar kitobi) 16 sahifadan iborat bo‘lib, uning muqaddimasida Roziy buni 12 ta kitobidan sakkizinchisi, deb yozadi va keyin oldingi yettita kitobning nomlarini tavsiflar bilan keltiradi. O‘zining «Shohidliklar kitobi» mazmuni haqida Roziy quyidagilarni yozadi: «Bizning «Kitob ash-shavohid» deb nomlangan sakkizinchi kitobimizga kelsak, u donishmandlarning sirli fikrlaridan, shu jumladan, aniq haqiqat so‘zlangan fikrlaridan ko‘chirmalarni o‘z ichiga oladi. Bizning bu asarni yozishimizdan maqsad, oldingi kitoblar qo‘shimchalarga muhtojligini isbotlash emas, balki biz qadimgi ustozlarimiz bilan hamfikrligimizni va biz ularning yo‘llarida chetga chiqib ketmaganligimni isbotlash edi». Ushbu kitobning to‘liq matni haligacha chop etilmagan, ammo Roziyning kimyoviy qarashlariga ularning hech qanday aloqasi yo‘qligi Steplton nashr qilgan parchalardan ko‘rinib turadi.

«Kitob al-madhal at-ta’limiy»([Alkimyoni] o‘rganishga kirish kitobi) risolasining to‘liq matni inglizcha tarjima bilan 1927-yili nashr etilgan. Ibn an-Nadimning ro‘yxatiga ko‘ra, «Kitob al-madhal» Roziy «O‘n ikki kitobi»ning birinchi asari hisoblanadi. Bu chindan ham boshlang‘ich qo‘llanma bo‘lib, alkimyoda ishlatiladigan barcha moddalar va asboblarning qisqacha tavsifi berilgan. Kitob shunday boshlanadi: «... Shuni bilingki, har bir san’at uchun zarur asboblar mavjud va bu asboblarning san’atga dahldor odamlarga ma’lum bo‘lgan nomlari bor, ammo ular boshqalar uchun noma’lum. Alkimyo deb nomlanga bu san’at uchun ba’zi asboblar va moddalar zarur va ular ushbu san’at bilan shug‘ullanadigan odamlar biladigan nomlarga ega, ammo ularni boshqalar bilmaydi. Men bu yerda ular haqida shunday ma’lumotlar to‘pladimki, agar o‘rganuvchi ularni o‘zlashtirsa, u bu san’at sohasidagi mutaxasislardan biri bo‘ladi ba uni tushunadi». Shundan so‘ng Roziy moddalar ro‘yxatini keltiradi. Keyin turli asbob va moslamalarning tuzilishi va foydalanishini belgilaydi, undan ba’zi kimyoviy jarayonlar haqida bayon etilgan. Oxirgi qismida esa Roziy «O‘n ikki kitob»ning boshqa asarlarida muhokama qilingan savollarni qisqacha sanab o‘tadi[3].

«Kitob al-asror»(«sirlar siri») va «Kitob sir al-asror»(«Sirlar siri kitobi») kitoblarida Roziy nazariy jihatdan metallarni kumush va oltinga aylantirishning kimyoviy yo‘llarini aniqlashga harakat qilgan. Ushbu nazariya fanda utopik jarayon hisoblansada, bu asarning qiymatiga zarracha ta’sir ko‘rsatmaydi. «Kitob al-asror»

[3] U.I.KARIMOV. AR-ROZIYNING NOMA’LUM ,,SIRLAR SIRI KITOBI’’. – Toshkent, 2020. B. 46-100.

dagi proporsiyalar, harorat, vaqt va yakuniy nuqtalar bo‘yicha tashkil etilgan tartiblar va yozma spetsifikatsiyalar – bu hozirgi labaratoriyalar qo‘llayotgan takror ishlab chiqarishga erishish strategiyalari bo‘lgan[4]. Nemis tarixchisi Karl Shmider 1832-yili o‘zining «Alkimyo tarixi» nomli asarini yozganda, Yuliy Ruska keyinchalik tarjima qilgan «Kitob al-asror» qo‘lyozmasi hali Germaniyaga kelmagan edi. Shmiderning yozishicha, ar-Roziyning yo‘qolgan alkimyoviy asarlari lotin matnlarida havolalar bilan ma’lum bo‘lgan[5]. 1878-yilda Videman birinchilardan bo‘lib, o‘zining «Zur Geschichte der chemie bei den Arabern» maqolasida «alembik» so‘ini izohlab berishda ushbu qo‘lyozmadan yoydalangan. 1905-yili Steplton Hindistonda «Kitob al-asror»ning yana bir nuqsonli qo‘lyomasini topadi. 1921-yili sharqshunos tarixchilardan biri hisoblangan Yuliy Ruska Gettingen universitetida arabcha qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechira turib, «Kitob al-asror»ning to‘liq qo‘lyozmasiga duch keladi.[6] Ushbu qo‘lyozma 1561-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, Germaniyaga Liviyaning Amba Buskay monastiridan 1878-yili olib kelingan.[7] Tarixchi olim Pol Krausning ta’kidlashiga ko‘ra, ushbu topilma arab kimyosi tarixidagi kalit bo‘lgan, unda muallifning tarjimai holi, Roziy asarlarining dastlabki kataloglari borligi, qo‘lyozma to‘liq va haqiyqiyligi bunga asos bo‘ladi.[8] 1923 va 1924-yillari Ruska ar-Roziy to‘grisida ikkia maqola yozdi. 1937-yilda esa Ruska ko‘p yillik harakatlardan so‘ng «Kitob al-asror»ni tarjimasini yakunladi va nemis tilida nashr ettirdi. Ushbu kitob asosan Gettingen qo‘lyozmasi asosida, shuningdek, boshqa uchta arab qo‘lyozmalari, Leybsig va Steplton taqdim qilgan Laknav va Eskurial qo‘lyozmalarining fotografik nusxalari tarkib topdi.[9]

«Kitob sir al-asror» «Kitob al-asror»ning davomi hisoblanib, unda yo‘q juda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Abu Bakr ar-Roziyning yuqorida keltirilgan kimyoga oid risolalari bir qancha vaqt nomi bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ikki asar sifatida bilib kelingan. Negaki, shu paytgacha o‘rta asr sharq fanining yirik bilimdoni Yuliy Ruska qo‘lida mavjud bo‘lgan qo‘lyozmalarga asoslanib, ar-Roziyning asarlari ro‘yxati mazmunan deyarli bir xil nomlangan ikkita asarining mavjudligini oddiy tushunmovchilik deb hisoblab, ar-Roziyning «Sirlar kitobi» deb nomlangan dastlabki asarini nemischa tarjimada «Sirlar siri kitobi» nomi ostida nashr etganligini va o‘zining nufuzi tufayli ushbu masalani vaqtincha jiddiy chalkashtirganligini aytadi.[10] Bu kabi yanglish fikr esa XX asrning o‘rtalarida yosh arabshunos olim U.I.Karimov

[4] Taylor, Gail Marlow. The book of secrets: Alchemy and the laboratory manual from al-razi to Libavius, 920-1597 C.E. – USA , 2009.
[5] Gail Taylor. THE KITAB AL-ASRAR: AN ALCHEMY MANUAL IN TENTH-CENTURY PERSIA. Pluto Journals (https:\\www.jstor.org\stable\41858601).
[6] Paul Kraus, ‘’Julius Ruska,’’ Osiris 5 (1938), 9.
[7] Ruska, Al-Razi’s Buch Geheimnes der Geheimnesse, 22.
[8] Kraus, ‘’Julius Ruska,’’ 13.
[9] This translation was published in Julius Ruska, Al-Razi 's Buch Geheimnis der Geheimnisse , Quellen und Studien zur Geschichte der Naturwissenschaften und der Medizin, Band 6 (Berlin: Verlag von Julius Springer, 1937). 21.
[10] U.I.KARIMOV. AR-ROZIYNING NOMA’LUM „SIRLAR SIRI KITOBI’’. – Toshkent, 2020. B. 15.

tomonidan to‘g‘rilanadi. Bu haqda mashhur sharqshunos olim V.Belyayev 1950-yili Toshkentda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan alkimyoviy asarlar qo‘lyozmalarining tasnifi bilan shug‘ullanayotgan yosh olim U.I.Karimov tomonidan Roziyning «Sirlar siri kitobi» deb nomlangan alkimyoviy risolasi qo‘lyozmasini, ya’ni «Eng buyuk sirlar kitobi» qo‘lyozmasining topilishi kutilmagan yangilik edi. Ubaydulla Karimov 1952-yil o‘rtlarida uning rus tilidagi izohli tarjimasini va ilmiy tadqiqotini nihoyasiga yetkazdi. 1953-yil mart oyida Lelingrad davlat universitetining Sharq fakultetida usgbu tadqiqot ishi muallif tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilinadi va endilikda qauta ishlangan ko‘rinishda nashr etilmoqda. Demak, hozirda mazkur asarning bizga ma’lum besh nusxasi mavjud. Leypsig nusxasi 138 varoqdan iborat bo‘lib, qo‘lyozmaning ko‘chirilgan joyi va sanasi ko‘rsatilmagan. Gettingen nusxasi 72 varoqdan iborat va oxirgi sahifasidan qo‘lyozmaning 1561-yili ko‘chirilganligini bilishimiz mumkin. Eskurial qo‘lyozmasi esa 91 varoq va uning ham ko‘chirilgan sanasi noma’lum. Hindiston qo‘lyozmasining hajmi, ko‘chirilgan sanasi haqida ko‘p ma’lumot topa olmadik. Shunday bo‘lsada, U.I.Karimov ma’lumotlariga tayanib, qo‘lyozmaning Laknovda topilganligini va yaxshi holatdaligini bilib oldik. Va so‘ngi beshinchi qo‘lyozma 1950-yili Ubaydulla Karimov tomonidan topilgan. Qo‘lyozma 141 varoqdan iborat va qo‘lyozmalar eng to‘lig‘i va qadimiysidir. Chunki 141b varoqda nusxa ko‘chirishni tugatgan sana 1506-yil 7-iyul deb aniq ko‘rsatilgan. Ko‘rinib turibdiki, qo‘lyozmalar orasida eng hajimi va qadimiyligi jihatdan Toshkent qo‘lyozmasi mukammalroq hisoblanadi. Balkim, shu sababdan ham Ubaydulla Karimov Yuliy Ruska tomonidan yo‘l qo‘yilgan chalkashkilni to‘g‘rilashga muvaffaq bo‘lgan.

Yuqoridan keltirilgan ma’lumotlar va fikrlarga asoslanib, biz zamonaviy dunyo duch kelayotgan tibbiy va kimyoviy muammolarni hamda ushbu sohalarning tarixiga oid chalkashliklarni hal qilishda Abu Bakr ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid asarlarining o‘rni katta ekanligini bilish mumkin.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Gail Taylor. The Kitab Al-Asrar: An Alchemy Manual In Tenth-Century Persia. Pluto Journals (https:\\www.jstor.org\stable\41858601).
2. Kraus, «Julius Ruska,» 13.
3. Paul Kraus, «Julius Ruska,» Osiris 5 (1938), 9.
4. Ruska, Al-Razi’s Buch Geheimnes der Geheimnesse, 22.
5. This translation was published in Julius Ruska, Al-Razi 's Buch Geheimnis der Geheimnisse , Quellen und Studien zur Geschichte der Naturwissenschaften und der Medizin, Band 6 (Berlin: Verlag von Julius Springer, 1937). 21

6. Taylor, Gail Marlow. The book of secrets: Alchemy and the laboratory manual from al-razi to Libavius, 920-1597 C.E. – USA , 2009.

7. U.I.Karimov. Ar-Roziyning Noma’lum «Sirlar Siri Kitobi». – Toshkent, 2020. B. 46-100.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Yunusova Nargiza Azamatovna
Toshkent viloyati Angren Shahar 6-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450745

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari, darsga bo‘lgan qiziqishini va dars samaradorligini oshirish usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, aqliy rivojlanish, amaliy faoliyat, qobiliyat, rag‘bat.

Kichik maktab yoshida bolalar didaktik o‘yinlarni (syujetli, predmetli, musoboqali) rohatlanib o‘ynashadi. Ularda faoliyatning quyidagi elementlari mavjud: o‘yinli masala, o‘yinli motivlar, masalalarni o‘quv faoliyati bilan bog‘liq yechimlari. Natijada o‘quvchilar o‘yin mazmuniga ko‘ra yangi bilimlarga ega bo‘lishadi. O‘quv-biluv masalalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilishidan farq qilgan holda, didaktik o‘yinda u bolaning o‘zini o‘yinli masalasi sifatida nomoyon bo‘ladi. Uni yechish usullari esa o‘quv-biluv faoliyatiga tegishli hisoblanadi.

Eng yaxshi didaktik o‘yinlar mustaqil ta’lim olish prinsipida tuzilgan, ya’ni, shunday tuzilganki, ularning o‘zi o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga qarab yo‘naltiradi. Ma’lumki, ta’lim olish ikkita komponentni o‘zida jamlaydi: kerakli ma’lumotni to‘plash va to‘g‘ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o‘quvchilarda didaktik tajribani ta’minlaydi. Lekin, tajribaga ega bo‘lish ko‘p vaqtni talab qiladi. O‘quvchilarda “bunday tajribaga ega bo‘lish”ni ko‘paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko‘nikmalarga ega bo‘lish mashqlariga o‘rgatishdan iboratdir. Bunga psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o‘yinlarni kiritish mumkin: krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar va boshqalar. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi, har bir o‘quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o‘yinning muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o‘quvchi uchun tadbiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi. Didaktik o‘yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o‘yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Masalan, bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o‘quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan voqea va xodisalarning imotatsion modeli yaratilishi soxasidagi muhim faoliyatidir. Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibiy qat’iyligidir Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quydagilar:

1. O‘yin mantig‘i.
2. O‘yin harakati.
3. O‘yin qoidasi.

O‘yin mantig‘i asosan uning sarlavhasida aks etadi.

O‘yin harakati jarayononida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish o‘quvchilarning o‘z qobilyatini namoyon qilish, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tahkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqi, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

O‘qituvchilar zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib darslarni ilg‘or pedagogik hamda didaktik o‘yinlardan foydalanish jarayonida ta’lim-tarbiya oshadi.

Didaktik o‘yinlarga “Do‘koncha”, “Nimani taqillatdim”, “Mehmonchilik”, “O‘rningni top”, ”Kim tezroq”, ”So‘zdan so‘z toping”, ”Farqini top”, Jimjitlik”, “Zanjircha”, “Doiraviy misollar” singari o‘yinlarda bolalar tevarak-atrof hayotni, narsalarning sifatini, og‘irlik o‘lchovi, narx- navolar va boshqalarni bilib oladilar, uarda fazoviy tasavvurlar mustahkamlashadi.

Didaktik o‘yinlar, o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga aylanadi. Bu hol o‘quvchilarning yotsirash hollariga ham barham beradi.

“Do‘kocha” tipidagi o‘yinni misol qilsak, o‘quv qurollari sotib olish va bir necha o‘quv qurollari narxini hisoblab chiqishiga, necha pul “qaytarib” berish kerakligi haqida o‘ylab ko‘rishga ham to‘g‘ri keladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki didaktik o‘yinlar bolalarda do‘stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy etishga yordam beradi.

“Bo‘sh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Ko‘rganini eslab qolish diktanti” singari o‘yinlarni o‘tkazish paytida o‘quvchilar sinf xonasida jim bo‘lishga, o‘zlarini tuta bilishlariga, sinf xonasida odob saqlash, hurmat kabi odobga ega bo‘ladilar. Didaktik o‘yinlar o‘zining tashkil etish shakillariga ko‘ra: individual (yakka), guruhli va yalpi (butun sinf o‘quvchilari ishtirokida bo‘ladi). Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, darslarda o‘quvchilar yoshiga tabiatiga mos bo‘lgan didaktik o‘yinlar dars jarayonining samarali chiqishi uchun xizmat qiladi.

"Jim" o`yini. O'yinning maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi. O'yin jihozi: Raqamiar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval. O'yinning borishi: Jadvallar

doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo`r bilan yoziladi. O'yin ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar. "Bilmasvoyning xatolari" o`yini O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish. O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi. 10-7=4 10-3=6 7-3=5

3+2=6 4+3=8 4+1=6

"Kim epchil" o'yini. O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish. O'yin jihozi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakozo. Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Ko‘pgina faoliyat turlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirib olish o‘quvchilarda masofa tushunchalarini shakllanishi bilan bog‘liq, narsalarni o‘ziga nisbatan muvozanatini aniqlab bilish ko‘nikmasi va o‘zini turli manbalarga nisbatan holatini bilish bilan bog‘liq. Ular kitobni o‘ng va chap betini, qog‘ozni yuqori va pastki qismini ajrata olgan holda ko‘rsatilgan yo‘nalishda chizib o‘tkazish kabilarni biladilar. Shuning uchun o‘yin faoliyatlarida bolalar bunday yo‘nalishlarda doimiy tarzda, tizimli ravishda mashq qilishlari kerak. Bu maqsadga “Mashinist turadigan xona quramiz”, “Yuqori havo masofasiga mo‘ljallangan shakllar” o‘yinlari qaratilgan. Bu o‘yinlarda bolalar ko‘rgazmalar asosida “chapdan”, “ o‘ngdan”, “oradan”, “chapdan, o‘ngga”, “ o‘ngdan chapga”, ” yuqoriga”, “pastga” kabi tushunchalarni egallab oladilar. “Eng yaxshi izquvar”, “Raqam bilan ifodalangan kartochkani top” o‘yinlarida o‘quvchilar narsalarga nisbatan o‘zlarini holatini aniqlaydilar va aksincha narsalarni o‘ziga nisbatan holatini aniqlaydilar. “Samolyot harakat doirasini aniqla” o‘yini bolalar bilimlarini chuqurlashtiradi va ma’lum bir tizimga tushiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, didaktik o‘yindan foydalanilganda bolalarning darsga qiziqishi ortadi, diqqatni jamlash rivojlanadi, dars materiallarini o‘zlashtirish yengillashadi hamda matematik kompetentsiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxirov J, Muxammedova G. “Matematika”darslarida innovatsiya; T: TDPU 2012 y

2. U.A.Roziqov, N/H.Mamatova Matematika va turmush nomli qo‘llanma, T: “Fan”nashriyoti, 2020 y,127 b

3. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2014-yil

4. Tolipov O‘, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2015-yil.

5 Aliev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

6. Boboyeva Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. - Toshkent:O‘qituvchi,2017

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSIDA TILGA OID MUNOSABATLAR TAHLILI

Tuxtarova Yorkinoy Toshpulatovna
Toshkent shahri Yashnobod tumani 231-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450751

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi,mashhur davlat arbobi, atoqli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar keltirildi. Uning badiiy nasrning yetuk namunasi hisoblangan “Boburnoma”asari tadqiqotchilar e’tiborini tortadi. “Boburnoma” matnlari asosida ko‘plab tilga va adabiyotga oid qimmatli ma’lumotlar olish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, tilshunoslik, adabiyot, maqollar, fors tili va tovush.

O‘zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qarama – qarshiliklar to‘la, murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning bizgacha yetib kelgan asarlari uncha to‘liq bo‘lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, “Volidiya” deb nomlangan tasavvufga oid qarashlari bitilgan she’riy tarjimasi, Bobur ixtiro etgan va “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alifbosi hamda “Boburnoma” asaridan iboratdir.

Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asari benihoyat qimmatli tarixiy memuar asar bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston mamlakatlarining XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi ahvoli, geografiyasi, siyosiy - iqtisodiy va madaniy hayoti o‘z ifodasini topgan. Boshqacha qilib aytganda, u o‘rta asrlarda yoritilgan shu xalqlar tarixini izohlovchi bironta muqobili bo‘lmagan tarixiy-badiiy asardir. Aslida “Boburiya”, keyinchalik “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeati Boburiy” va eng so‘nggida “Boburnoma ” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu asar Hindistonda eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan. “Boburnoma” juda ko‘p tillarga, chunonchi: fors, ingliz, nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan.

Tarixiy manbalar Hindiston mamlakatining “Boburnoma” ga juda ham hurmat bilan qaraganligini ko‘rsatadi. Boburning nevarasi Akbarshoh (1556-1605) davrida “Boburnoma” o‘zbek tilidan fors tiliga tarjima qilindi va u bu davrda “Voqeoti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Fors tiliga qilingan tarjimalar ichida

Abdurahmonxon tarjimasi yuqori saviyaliligi bilan ajralib turadi .

“Boburnoma” materiallari Hindiston tarixchilari (Gulbadanbegim, Abdul Fazl, Farishta, Nizamiddin Xeravi va boshqalar) uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Bu asarning to‘liq matni 1857-yilda turkolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining to‘rt betlik nashr prinsiplarini ko‘rsatgan ruscha so‘z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga H.U.Ilimenskiyning zo‘r faoliyat ko‘rsatganini alohida qayd etish kerak.

Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz orentalistlaridan A.Beverich xonim “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasining ayni o‘zini sinkografiya yo‘li bilan nashr etdi. Bu nashr nusxasining qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Bu ham to‘liq tekst bo‘lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba’zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan holi emasdir.

London nusxasining afzalligi shundaki, A.Beverij nusxaning ayni o‘zini berib juda yaxshi ish qilgan. Shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari , geografiya va qabila, urug‘ nomlari ko‘rsatkichi berilgan va ingliz tilida o‘n betlik so‘z boshisi ham bor. Lekin ko‘rsatkichlarni transliterasiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nashrni to‘g‘ri o‘qish masalasini qiyinlashtiradi.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1848-1949 yillarda “Boburnoma”ning ikki qismidan iborat to‘liq teksti bosib tarqatilgan edi. Bu nashr o‘zbek alifbosida geografik nomlar ko‘rsatkichi , to‘liq lug‘at, ba’zi bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi.

Shundan keyin “Boburnoma” ning to‘liq matni 1960-yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi.

“Boburnoma” ning til xususiyatlari haqida fikr yuritish uchun, bizningcha juda ko‘p masalalarni hisobga olmoq lozim. Chunonchi, birinchidan lahjalar munosabatini. Negaki, o‘zbek tili o‘zining ko‘p lahjaliligi jihatidan turkiy tillarning barchasidan farqlanadi.

Shuning uchun ham professor E.D.Polivanov: “O‘zbek tili yagona sistemaning , hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek bobo tilining dialektologik parchalanishi yo‘li bilan emas, balki til sistemalarining birlashuvi yo‘li bilan paydo bo‘lgan”,-deb aytgan edi.

Haqiqatdan ham o‘zbek adabiy tili uchta katta mustaqil (qarluq-chigil yoki o‘rta o‘zbek qipchoq yoki sof o‘zbek professor E.D.Polivanov atamasi) o‘g‘iz lahjalaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri yana bir-biridan farq qiluvchi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, bu lahjalarning har biri mohiyat e’tibori bilan yirik bir til birligi sifatida bir-biridan fonetik , leksik, grammatik, uslubiyat jihatidan ham farqlanadi.

Hatto bugungi kunda sezilayotgan bunday tafovutlar eski o‘zbek tili davrida

yana mo‘lroq ayni paytda kuchliroq bo‘lganligi tabiiy holat. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur bu tafovutlarni juda chuqur his etgani holda ularning har biriga xos bo‘lgan so‘zlarni “Boburnoma”da qo‘llaydiki, bu bilan , avvalo , adabiy tilning boyligini ta’minlaydi. Ayni paytda adabiy til bilan umumxalq tilini yaqinlashtiradi va shu asosda “Boburnoma” tilining soddaligini, natijada uning o‘qimishliligini ta’minlagan. Chunonchi, Andijon lahjasida hozir ham “eshik ” so‘zi, “uy”, “hovli” ma’nosida “to‘shak solish” birikmasi mehmonga ko‘rpacha solish, joy tayyorlash ma’nolarida ishlatiladiki, bunday xususiyat “Boburnoma” tilida ham mavjud. Masalan: “Ibni Husayin mirzo bu to‘shakda o‘lturdilar, manga solg‘on to‘shakdin quyi o‘ng qo‘limda yana bir to‘shak solib erdilar, Jahongir mirzo bila Abdurazzoq mirzo ul to‘shakda o‘lturdilar”. Ayni paytda “Boburnoma”da o‘g‘uz lahjasiga xos so‘zlargina emas, hatto bu lahjaning xususiyatini ko‘rsatuvchi grammatik shakllar ham faol ishlatilgan: “Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar o‘ta yomon ish qilg‘on bo‘lsa , yaxshi ish bila badal qilmoq kerak”.(250)

Darhaqiqat, harakat nomining eski o‘zbek tili davrida ishlatilgan - moq, - mak, shakli hozirda o‘g‘uz lahjasida keng doirada qo‘llaniladi.

Tabiiyki, “Boburnoma” da qipchoq lahjasiga xos bo‘lgan so‘z va iboralar ham anchagina. Chunonchi, qaqasroq (152), obi-tobu (295), tangi (296), ko‘tal (296), to‘ng‘ub (301), tupuchoq(303), julg‘o(306), yilon (306), cho‘r bitti(308), pushta (113), yayov (327), ushoq (330), kichik kirim (339), bo‘dana (398), andak (398), yanga, checham (417), amma (417), qopto (255)l, uchma (258) , tumshuq (259), inish (259) va boshqalar.

Masalan: “Jvong‘ir kishisi tangilardin o‘tub darvozag‘a tiqilib bordi”. (296) Shanba kuni safar oyining uchida uluq amma begimlardin: Xonzodabegim, Sulton Ma’sul mirzoning qizi, yana Sulton Baxtbegimning qizi, yana yanga chechamningkim, Zaynab Sultonbegim bo‘lg‘ay,…(417) Zero, o‘sha davr tilida faol qo‘llanilgan tangi , amma, checha so‘zlari hozirgi adabiy tilda kam ishlatiladi. Ammo bular qipchoq lahjasida hozir ham keng qo‘llaniladi. Ya’ni “tangi” uch tomoni tog‘ bilan o‘ralgan joy, “amma” – otasining singlisi yoki egachisidir. Demak ko‘rinadiki, “Boburnoma”ni bir lahja doirasida kuzatish, uning tilini faqat bir lahjaga nisbat berish mutlaqo mumkin emas.

Ikkinchi masala bevosita birinchi bilan aloqador bo‘lib, adabiy tilning umumxalq tili bilan munosabati va shu borada “Boburnoma”ning tutgan o‘rni. Ma’lumki, xalq tili bir tomondan bitmas-tuganmas boy, ikkinchi tomondan, fikrni boshqalarga yetkazish imkoniyati cheksiz. Shuning uchun hamisha yozma adabiy til umumxalq tili va og‘zaki adabiy til bilan yaqin munosabatda bo‘lsagina o‘z boyligini, uslubiy ta’sirchanligini, asar tilining soddaligi-yu, jarangdorligini ta’minlay oladi. Zero, “Boburnoma” bu ma’noda ham yuksak pog‘onaga ko‘tarilgan shoh asar sanaladi. “Boburnoma”da o‘xshatish, chog‘ishtirish, istiora kabi badiiy vositalar

tildagi ixchamlik, mo‘ljalning aniqligini ta’minlash, chiroyli hajvning yuzaga keltirishlarini ta’min qilganki, bu so‘z san’atining ajoyib namunasidir. Masalan, muallif Badiuzzamonning siyosiy tuturuqsizligini, mamlakatni zaiflashtirishda ichki va tashqi teskari kuchlarga yo‘l ochib berganligi juda bir chiroyli ifodalaydi: “Baddiuzamon mirzo xud bularning ilkida xamir edi, bularning so‘zlaridan tajovuz qila olmas edi”. Yoki xurmo daraxtini hayvonot dunyosiga qiyoslar ekan, uning ikki xususiyati o‘xshashligini, ya’ni birinchidan xurmo daraxtini ham xuddi hayvonot kabi boshini kessa qurishi, ikkinchidan xurmo daraxtiga ham erkagining shoxidan olib kelib changlatmasa xuddi jonzotlardagidek hosil olib bo‘lmasligini ta’kidlaydi: “Derlarkim, nabotot orasida xurmo daraxtining ikki ishi hayvonotqa o‘xshar : bir ulkim , nechukkim, hayvonot boshini kesarlar – hayoti munqati’ bo‘lur. Xurmo daraxtining ham boshi kesilsa, daraxti qurur. Yana bir ulkim, nechukkim, hayvonottin be nar natija hosil bo‘lmas, xurmo daraxtig‘a ham nar xurmodin shoxini kelturub, tegurmasalar, yaxshi bar bermas”.(355)

“Boburnoma” asari Boburni nafaqat turkiy tilni balki fors tilini ham xuddi shunday mukammal bilishini ko‘rsatib beradi. Bundan ko‘rinadiki, o‘sha davrda tillarning o‘zaro kontaktda bo‘lganini o‘z tilida ko‘rsatib beradi. Asarda xalq maqollari va ta’birlari juda ham o‘rinli qo‘llanilgan. Masalan, “Qopudag‘ini qopmasa, qariguncha qayg‘urur”, “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “Ko‘zlarini tuz tutti” va boshqalar. Yana asarda o‘zbek tilidagi maqollar bilan bir qatorda fors tilidagi maqollar ham ishlatilgan. Bu esa Boburning fors-tojik klassik adabiyotinigina emas, balki folklorlarni , xalq tilini ham yaqin bilganligidan darak beradi.

Masalan: Uzram battar oz gunoh (Uzri gunohidan yomonroq), Deh kunjovu daraxton kujo (Qishloq qaydayu daraxtlar qayda), G‘ofil az injo randa az anjo manda (G‘ofil bu yerdan quvilgan , u yerdan ajralgan), Marbo yoron sur ast (Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lish – to‘ydir), Dah darvish dar yak gilame buxsoband va du podshoh dar iqleme nag‘unjand (O‘n darvish bir gilamga sig‘ib yotarlar, ikki podsho bir iqlimga sig‘maydi)va h.k.

Bobur mazkur maqollarni o‘rnida qo‘llaydiki, ularni kitobxon voqealarni yana ham aniqroq tasavvur qilishni, bayonning ta’sir kuchini oshirish uchun ishlatadi. Masalan, keltirilgan oxirgi maqol Shayx Sa’diyning “Guliston”idan olingan bo‘lib, Bobur uni Husayn Boyqaro vafotidan keyin ikkita o‘g‘li barobar taxtga o‘tirgani munosabati bilan ishlatadi.

“Boburnoma”ning tili umumxalq tiliga yaqin bo‘lganligi sababli bu xususiyat asarda gap tuzilish jarayonida ham saqlanib qolgan. Ya’ni xuddi xalq tilida bo‘lganidek, “Boburnoma”da qo‘llangan qo‘shma gaplarni ham sodda gaplarga yengilgina ajratish mumkinki, bu holatni quyidagi parchadan ham bilsa bo‘ladi: “Ko‘p el ot ustida – o‘q tong otturdi, havol torroq ko‘rundi. Men havolning og‘zida

kurak olib, qor kurab, o‘zimg‘a, bir takiya miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksimgacha qozdim, hanuz yerga yetmaydur edi. Bir nima elga panoh bo‘ldi o‘shanda – o‘q o‘lturdim. Har necha dedilarkim, havolg‘a boring bormadim. Ko‘ngulga kechtikim, borcha el qorda va chopqunda , men issiq uyda va istirohat bila, munda borcha ulus tashvish bila tashaqqatta, men munda uyqu bila farog‘atda. Muruvvattin yiroq va hamjihatlikdin qiroq ishdur. Men ham tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: “Marg boyoron surast” (“Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim to‘ydur”) (257)

Boburning fikr doirasi nihoyatda keng. U juda ko‘p soha bo‘yicha nazariy fikrning, bilimning yaratuvchisi ham. Demak, o‘z-o‘zidan shu sohaga oid tushunchalar va shu tushunchalarni ifodalovchi juda ko‘p atamalar “Boburnoma” dan o‘rin olganki, bu ham “Boburnoma” tilini tadqiq etganda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan holatdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Boburnoma”dagi so‘zlarni qiyoslab o‘rganishlar tadqiqotchilar oldida yana bir yangi dunyo ochadi. U nafaqat o‘zbek, balki, turkiy tillar doirasida, balki dunyo tilshunosligida tillarni yangi bir usulda – tarixiy- qiyosiy usulda o‘rganish tarixi nuqtai nazardan zarur bo‘lgan ilmiy asar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar jarayonida Boburning iqtidori yuksak darajada va so‘z qo‘llash mahorati a’lo darajadaligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning asarlari tili sodda va tushunarli, ravon tilda yozilgan, bundan tashqari bir necha tillarni yaxshi bilgan, maqollardan unumli foydalana olgan. Bobur biror so‘z yoki atamadan foydalanmoqchi bo‘lsa, uning sababini ham izohlab o‘tgan. U qayerda bo‘lmasin kichik narsadan yirik narsagacha jiddiy e’tibor bergan. Tahlil qilgan, xulosalarini aynan shu asarda ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boburnoma. - T.:1960

2. V.Zohidov .Bobirning faoliyati va ilmiy adabiy merosi haqida. Kitobda:Bobir. Bobirnoma. –T.:1960

3. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. T. “O‘qituvchi”,1976

4. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma.S.:2005

5. G‘ofurova Sh. “Boburnoma”asaridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar.Ilmiy maqola.:2021

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРИВЛЕЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ К ПРОФЕССИИ

Нарзуллаева Шоира Бахшиллоевна
Поофессиональная школа города Бухары Преподаватель русского языка и литературы
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450757

Абстрактный: В современном быстро развивающемся глобальном мире роль современных коммуникаций несравнима. В частности, те же информационные технологии играют большую роль в направлении молодежи в профессию. В данной статье подробно рассматривается значение современных технологий в привлечении молодежи к профессии.

Ключевые слова: информация, современные технологии, профессия, национальная программа подготовки кадров, психология молодежи и др.

Профориентация подрастающего поколения всегда была одной из приоритетных задач, стоящих перед нашей страной и политикой. В реализации этого процесса большое значение имеют роль родителей наших детей и образовательных учреждений, деятельность работающих в них педагогов и практикующих психологов. В данной статье кратко рассматриваются существующие проблемы в правильной ориентации студентов на профессию, недостатки на практике и пути их устранения. В последнее время в сотрудничестве с Республиканским образовательным центром при Министерстве народного образования Республики Узбекистан, Министерстве дошкольного образования, Министерстве высшего образования, Государственной инспекции по контролю качества образования совершенствуется наукоемкость технологии в системе непрерывного образования. и обучения студентов «Подготовка к жизни через профессиональное обучение» прошла республиканская онлайн научно-практическая конференция. Одним из основных направлений конференции является тема «Значение и роль технологий в профориентации студентов». На самом деле роль технических наук в направлении учащихся к профессии очень велика. Например: на уроках технологии с 1-го класса, знакомящих с простыми бытовыми приборами, изготовлением различных игрушек, учащиеся начинают интересоваться профессиями конструирования, строительства, пошива одежды, маляра, а в следующих классах количество этих профессий еще более увеличивается. Увлеченность различными профессиями будет иметь четкую направленность в выборе профессии в 8-9 классе. Учащиеся получат

информацию о различных профессиях в области технологий, способах их получения, обязанностях, успехах и важности профессий в жизни.

Сознательность и самостоятельность в выборе профессии, сущность самообразования и выбора профессии, факторы сложности профессий, условия, необходимые для выбора профессии, интересы и склонности, здоровье и другие качества составляют основу технических наук. Поэтому мы должны обратить внимание на преподавание технологии. Важно научить этому предмету наших детей, помочь им найти свое место в жизни. Даже в нынешней ситуации с пандемией мы, учителя технических наук, проводим кружки и мероприятия «5 инициатив» вместе с другими учителями естественных наук в нашей школе, даже если занятий нет. Вчера вместе с учителями биологии мы провели акцию «Праздник урожая». В нем наши ученики более совершенно освоили приемы очистки и нарезки овощей и фруктов. Каждый студент должен чувствовать, что выбранная им профессия в области техники важна как для него самого, так и для развития общества. Как видно из этой инструкции, обеспечение занятости молодежи и направление ее в профессию является одной из приоритетных задач нашей государственной политики. В связи с этим большое значение имеет ориентация выпускников школ на профессию, правильный выбор профессии исходя из их таланта. Известно, что развитие, социальная, политическая и экономическая стабильность любого общества зависят от высокоразвитого интеллектуального и нравственного потенциала его граждан. Ведь национальный вопрос подготовки кадров играет важную роль в духовном обновлении нашего общества, в формировании социально ориентированной рыночной экономики, в формировании социально ориентированной рыночной экономики.

По мере того, как человеческий ребенок взрослеет, он стремится к знаниям и просвещению. Он также получает свой первый урок в школе. Но естественно, что некоторые проблемы, связанные с воспитанием молодежи, которая является хозяевами нашего будущего, заставляют задуматься уже сегодня. Потому что современному насильственному обществу нужны зрелые и знающие специалисты. Начальный и в то же время чрезвычайно важный этап процесса профессионального становления включает в себя период до выбора будущей профессии, то есть до принятия конкретного профессионального решения. Очевидно, что уровень готовности молодежи к выбору профессии не зависит только от возрастных особенностей, он не формируется сам по себе к определенному возрасту. Подготавливать и обучать молодежь выбору профессии необходимо через педагогические и психологические знания, навыки, квалификацию, а также влияние общества. В этом процессе от человека требуется наличие профессиональных знаний. Поэтому необходимо

вооружать учащихся знаниями о мире профессий и развивать практические навыки и компетенции. Для этого необходимо предоставить пособия и раздаточные материалы по профессиям. Только тогда мы сможем осознанно направлять учащихся к профессии, избегая различных трудностей, конфликтов и препятствий, возникающих в процессе выбора профессии.

Информационные системы существовали с самого начала существования общества, поскольку на различных этапах своего развития общество нуждалось в систематизированной, заранее подготовленной информации для своего управления. Особенно это касается производственных процессов - процессов, связанных с производством материальных и нематериальных товаров. Потому что они жизненно важны для развития общества. Именно производственные процессы быстро совершенствуются. По мере их развития усложняется управление, что, в свою очередь, стимулирует совершенствование и развитие информационных систем. Поэтому давайте сначала разберемся, что такое система управления. Согласно кибернетическому подходу, система управления представляет собой совокупность объекта управления (например, предприятий, организаций и т.п.) и субъекта управления, аппарата управления. Под аппаратом управления понимаются сотрудники, которые формируют цели, разрабатывают планы, корректируют требования к принятым решениям, а также следят за их выполнением. В задачу объекта управления входит выполнение планов, разработанных аппаратурой управления, то есть сама система управления предназначена для выполнения этих задач.

Техническая и практическая оснащенность позволяет преподавателям использовать наглядный метод с различным оборудованием на лабораторных и практических занятиях, закреплять полученную информацию видеоматериалом и презентациями. В современной теории проблемного обучения различают два вида проблемных ситуаций: психологическую и педагогическую. Первая касается деятельности обучающихся, вторая представляет организацию учебного процесса. Проблемные методы – это методы, основанные на создании проблемных ситуаций, активной познавательной деятельности обучающихся, состоящей в поиске и решении сложных вопросов, требующих актуализации знаний, анализа, умения видеть за отдельными фактами явление, закон. Информационные системы в организационном управлении предназначены для автоматизации функций отдельных лиц. К этому классу относятся информационные системы для управления как производственными (предприятиями), так и непромышленными объектами (банки, биржи, страховые компании, гостиницы и т. д.), а также отдельными офисами (офисные системы). В управлении технологическими процессами информационная система предназначена для автоматизации различных

технологических процессов (гибкие производственные процессы, металлургия, энергетика и др.). Первые информационные системы появились в 50-х годах. В эти годы они предназначались для обработки расчетов заработной платы и проводились на электромеханических учетных машинах. Это привело к некоторому сокращению усилий и времени при подготовке бумажных документов.

Молодое поколение является потенциальным ресурсом будущего нашей страны. Молодежь в условиях инноваций и технологий быстрее, чем взрослое население, приспосабливается к быстрым темпам и изменениям во всех сферах жизни. Создание условий для формирования профессиональных компетенций и подготовка технически образованных и высококвалифицированных рабочих, владеющих профессиональным мастерством и отвечающих требованиям современного производства, способствует всестороннему развитию личности молодого рабочего; позволяет сохранить контингент обучающихся по профессиям. Популяризация рабочих профессий в условиях конкурса профессионального мастерства позволяет комплексно решать проблемы воспроизводства квалифицированных кадров рабочих и служащих для производственных предприятий региона, повысить инвестиционную привлекательность профессиональных образовательных организаций и обеспечить своевременные изменения образовательного процесса в соответствии с требованиями работодателей. Конкурсы профессионалов подчеркивают внимание государства и бизнеса к человеку труда, его мастерству и значимости выполняемой им работы. Это, в свою очередь, способствует укреплению заинтересованности граждан в созидательной деятельности, включая повышение производительности труда. В последнее время в ходе проведения конкурсов профессионального мастерства проявилась еще одна важная составляющая — привлечение внимания профессиональной общественности к вопросам участия в разработке и применении профстандартов, а также к участию в независимой оценке квалификаций.

Использованная литература:

1. Nurova I.D. Mehnat ta’limi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – T., 2014.
2. Munavvarov T. Pedagogika. T.: O‘qituvchi, 1996.
3. Mavlonova R. A. Mehnat ta’limi metodikasi T.: O‘qituvchi, 1986.
4. Сластенин В.А. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов - М.: Издательский центр "Академия", 2013г.- с.335.
5. Волошина И.А. Лучшие практики популяризации рабочих

профессий./ Волошина И. А., Клинк О. Ф., Факторович А. А., Костылева А. А., Зайцева О. М., Москва, 2017 г. - с.78.

6. Стандарты WorldSkills Kazakhstan. - с.12 http://worldskills.kz/?page_id=42 (дата обращения: 10.10.2020г.)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Elmurodova Rohila Axmedovna
Toshkent viloyati Angren shahar 6-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450773

Annotatsiya: Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda o‘quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlatlarni tushunamiz. Matematikadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni dars mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishda qaratilgan bo‘lishi kerak.

**Kalit so`zlar:** Boshlang`ich sinf, matematika, mashg`ulot, misol, sinf, bilim, o‘quvchi, natija.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda ko‘pincha yuqori sinflar nazarda tutiladi. Lekin ilg‘or tajribalarning tasdiqlashicha, boshlang‘ich sinflarda ham sinfdan tashqari turli – tuman formalarda mashg‘ulotlar olib borishning potensial imkoniyatlari mavjud. Bu imkoniyatlardan foydalanish o‘qitishda boshlang‘ich va yuqori sinflar uzviyligini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda o‘quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirishga kompleks holda yondashish talab qilinadi. Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta’lim – tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni benihoya katta. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar O‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari mavjud:matematika to‘garagi, matematika ertaligi, matematikadan fakultativ mashg‘ulotlar, matematik matbuot, matematik viktorina va olimpiadalar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin.

a) ommaviy ishlar; (musobaqalar, ko‘rik tanlovlar, kechalar, ertakliklar,

ekskursiyalar va hokazolar);

b) to‘garak ishlar (yosh matematiklar);

d) o‘qituvchilarning mustaqil mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish (bunda o‘quvchilar fan va texnikaning biron soxasini o‘rganish uchun mustaqil ishlaydilar va hokazo).

e) Maktabdagi o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari.

Matematika to‘garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To‘garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Matematika to‘garagi ishi qiziqarli, matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi: Matematika to‘garagiga o‘quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Har qaysi matematika to‘garagida qatnashadigan o‘quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o‘qituvchiga qiyinchilik tug‘diradi va o‘quvchilar to‘garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar.

Matematika to‘garagini o‘tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

1-mashg‘ulot. 1. Rebuslarni o‘ylab topish. 2. Qo‘shishga oid qiziqarli masalalar. 3. 100 ichida raqamlashni bilishni tekshirishga oid mashqlar. 4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar. 5. Hazil masala. 6. Topishmoqlar. 7. Quvnoq sanoq (20 ichida) o‘yini.

2-mashg‘ulot. 1. Rebuslarni o‘ylab topish. 2. Topqirlikni talab qiluvchi she’riy masalalar. 3. Geometrik figuralarni tahlil qilishga doir mashqlar. 4. Hazil masala. 5. “Sonni to‘ldir” o‘yini.

3-mashg‘ulot. Dars tipidagi to‘garak mashg‘uloti.

Matematik tanlovlar. Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar bo‘lib hisoblanadi. Asosan O‘quvchilarning xohishi bo‘yicha masalalar yechishda o‘z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok qiladi.

Matematik olimpiadalar. Olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng ko`lamda o‘tkaziladigan va matematika o‘rganishda o‘quvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan ishdir. Olimpiada qatnashchilarining tarkibiga bog‘liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda o‘tkazish mumkin. Olimpiadani 3 - sinfdan boshlab o‘tkazib, g‘oliblar maktabning devoriy gazetalarida va o‘quvchilar yig‘ilishlarida rag‘batlantiriladi.

Matematik matbuot va viktorinalar.

Gazeta, viktorinada har xildagi matematik mazmunni o‘z ichga olgan topishmoq, misol va topshiriqlar rasmlarda berilib, qiziqish xarakterida bo‘ladi. Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo‘yiladi, bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi sonli ma’lumotlar ham berib boriladi. “Bilasizmi?” ruknida qiziqarli materiallar beriladi.

Masalan:

1. Odamning bo‘yi bir kunda 1 sm dan 6 sm gacha o‘zgarishi mumkin.

2. Dunyodagi eng uzun temir yo‘l 9302 km ni tashkil etadi.

3. Dunyoda okeanlar suvida 13300 mln tonnagacha kumush bor. Matematika burchagini tashkil qilishni o‘quvchilar va ularning ota-onalari faoli yordamida amalga oshirilishi mumkin. Matematik viktorinalar ma’lum mavzu, bo‘lim yoki umuman matematikaga doir masalalar bo‘yicha savol – javob o‘yini bo‘lib, ko‘p vaqt va katta tayyorgarlik talab qilmaydi. Boshlang‘ich sinflarda viktorinalar 10 – 20 minut davom etadi. Bunda oldindan tayyorlangan 5 – 6 savolga og‘zaki yoki yozma javob olinadi. Matematik musobaqa Yuqorida aytib o‘tilgan sinfdan tashqari ishlarda (10 minutlik, viktorina va h.k.), asosan, butun sinf o‘quvchilari ishtirok etsa, matematik musobaqalarda (konkurs, olimpiada) ko‘pchilik ishtirok etib, g‘oliblar musobaqasi bilan yakunlaydi, ya’ni bu musobaqa bir necha (ko‘pincha 3 yoki 4) davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Sh Levenberg va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 2015-yil 72-84-betlar

2. Bikbayeva N va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 2016-yil 493-510-betlar

3. Trudnev V.P “Внеклассная работа по математике в начальных классах ” M, Просвещение 2015

4. N Boltayev, O Qodirov “Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar” Toshkent “O‘qituvchi” 2012

5. N. U. Bikbayeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. O‘qituvchi, Toshkent 1996 y.

6. M. E. Jumayev, Z. K. Tadjieva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” O‘qituvchi, Toshkent 2005 y.

ЎЙИН АСОСИДА РЕФЛЕКСИВ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Каримова Нилуфар Раимжановна
НамДУ “Педагогика назарияси ва тарихи” кафедраси
катта ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7450779

ПРЕИМУЩЕСТВА ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ИГРЫ

Каримова Нилуфар Раимжановна
НамДУ" старший преподаватель кафедры
"Теория и история педагогики"

Аннотация: Ушбу мақолада кичик мактаб ёшида ўқувчиларини таълимга жалб этишда ўйин фаолиятидан ўқув фаолиятига аста-секинлик билан ўтишни амалга оширишнинг афзалликлари ҳақида мушохада юритилган.

Аннотация: В этой статье рассматриваются преимущества постепенного перехода от игровой деятельности к учебной деятельности при вовлечении своих учеников в обучение в младшем школьном возрасте.

Annotation: This article discusses the advantages of a gradual transition from playing activities to learning activities when involving their students in learning at primary school age.

Калит сўзлар: ўйин, аҳамият, вазифа, метод, одат, фаолият, ўқитувчи, мазмун, дарс, мавзу.

Ключевые слова: игра, значение, задача, метод, привычка, деятельность, учитель, содержание, урок, тема.

Keywords: game, meaning, task, method, habit, activity, teacher, content, lesson, topic.

Мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ, бутун мамлакат миқёсида таълим ва тарбия, илм-фан, касб-ҳунар ўргатиш тизимларини тубдан ислоҳ қилишга киришилди. Белгиланган мақсадлар муваффақиятли амалга оширилиб, ҳозирги кунда таълим соҳасида юксак самарадорликларга эришилмоқда. Бунда ўқитувчилар билан бирга кенг жамоатчилик, бутун халқимизнинг фидокорона меҳнатини эътироф этиб, Президентимиз Ш.Мирзиёев ўзининг “Ўқитувчи ва мураббийлар куни” муносабати билан соҳа ходимларига йўллаган табригида “Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта

устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси асосида барча соҳаларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар муваффақияти, мамлакатимизнинг ривожланган давлатлар қаторидан муносиб ўрин эгаллаши, аввало, илм-фан ва таълим-тарбия соҳасининг ривожи билан боғлиқ эканини алоҳида таъкидлади”[11].

Бу улкан жавобгарлик ҳисси ўқитувчиларда педагогик маҳорат қирраларининг турли жараёнларини ҳозирги замон талаблари даражасида такомиллаштиришни талаб этади. Сўнгги йилларда педагог ва психолог олимлар ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятида фикрлаш ҳамда аналитик қобилиятларни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этишини таъкидламоқдалар. Бу қобилиятлар асосини эса, ўқитувчининг касбий рефлексияси ташкил этади. Рефлексия (лот. «рефлехсио» - орқага қайтиш) - «ҳар томонлама баркамол ривожланган инсоннинг ўз хатти-ҳаракатлари ва уларнинг қонуниятларни англашга қаратилган назарий фаолият шаклидир; инсон маънавий дунёсининг ўзига хос яширин ҳислатларини очиб берадиган ўз-ўзини билишга ва англашга қаратилган фаолиятдир»[12]. Илк бор рефлексия тушунчаси қадимги Юнон фалсафасида юзага келган ва инсоннинг ўз онгида кечаётган мулоҳазалари ҳақида, ўзи фикр юритиши жараёни. Ўз фикрлари мазмунини таҳлил қилишга эътиборини жалб қилишни англатган (Декарт). Сократ, Платон, Локк ва бошқа юнон файласуфлари рефлексияни инсоннинг ўз-ўзини билишга, нималарга қодир эканлигини эътироф этишга қаратилган фаолияти эканлигини таъкидлайди[13]. Бизнинг мақсадимиз эса бошланғич синф ўқувчиларида ўйин технологияси асосида ўз-ўзини билиш ҳамда баҳолашга қаратилган рефлектив кўникмаларни шакллантириш методларини ишлаб чиқишдан иборат. Шундай экан, ўйин технологияларининг аҳамиятини ва вазифаларини кўриб чиқсак, ўйинлар методи кичик мактаб ёшида бўлган ўқувчиларни улар учун одат тусига кирган ўйин фаолиятидан ўқув фаолиятига аста-секинлик билан ўтишни амалга оширади, бу ўтиш жараёнини сезиларсиз ва ҳеч қандай қийинчиликсиз ўтишига ёрдам беради. Ҳар бир ўқитувчи ҳар бир ўйиннинг нима учун мўлжалланганлигини, унинг мазмунини яхши тушуниши, ўйинни ҳар бир дарс учун мавзуни ўзлаштиришдаги аниқ вазифаларини ҳисобга олган ҳолда ташкил қилиш билан бирга, ўқувчиларда рефлектив кўникмаларни шакллантириш методикасини ўйлаб чиқиши зарурдир. Чунки, ўйин ҳам меҳнат ва таълим каби инсоннинг асосий фаолият турларидан бири бўлиб, бизнинг мавжудлигимизнинг ғаройиб феноменидир. Инсон ҳаётида ўйин фаолияти қуйидаги вазифаларни бажаради:

[11] Ш.Мирзиёев “Ўқитувчи ва мураббийлар куни” муносабати билан соҳа ходимларига йўллаган табриги. 29.09.2017 й.ЎзА.
[12] Э.Валиев. Педагогик технология фани бўйича изоҳли луғат. Термиз. 2014 й
[13] Декарт Р. Сочинения, тт. 1–2. М., 1989–1991 г

- кундалик ишлардан чалғиш учун овунмоқлик (маза қилиш, қизиқиш уйғотиш, илҳомлантириш функсияси);
- коммуникативлик: мулоқот диалектикасини ўзлаштириш;
- инсон амалиёти полигони сифатида ўйинда ўзини кўрсатиш;
- ўйин-терапия: ҳаёт фаолияти давомида пайдо бўладиган турли тўсиқлардан ошиб ўтиш;
- ташҳисловчи: ўйин жараёнида ўзини англаш, нормал ҳатти–ҳаракатлардан четланганликни аниқланиши;
- коррексиялаш функсиясини бажариши: шахсий кўрсаткичлар таркибига позитив ўзгаришларни киритиш;
- миллатлараро коммуникациялар: барча инсонлар учун ягона бўлган ижтимоий-қадриятларни ўзлаштириш;
- ижтимоийлашув: жамият мунособатлари тизимига киргизиш, инсониятнинг умумий яшаш нормаларини ўзлаштириш.

Ўқувчи ўйин давомида ҳаётий образлардан фойдаланиш қобилиятига эга бўлади, бу эса ўз навбатида кейинги мураккаб ижодий фаолиятга ўтишда асос бўлиб хизмат қилади. Бундан ташқари тасаввурнинг ривожланиши муҳимлиги ўз ўзидан равшан, чунки унингсиз энг оддий инсон фаолиятининг амалга ошиши ҳам мумкин эмас. Ўйин ўқувчиларнинг тенгдошлари билан ўзаро мунособатларини ривожланишида ҳам катта таъсир кўрсатади. Бундан ташқари, ўйин давомида ўзаро муносабат ва ўзаро ҳаракатларни амалга ошира туриб қоидаларни ўзлаштиради, билимларини қайта эслаб, такрорлаши натижасида у ўзаро тушуниш тажрибасига эга бўлади. Ўқувчининг кейинги ҳаёти давомида бундай сифатлар қанчалик зарур эканлиги барчамизга маълум, биринчи навбатда мактабда, у ерда ўқувчи тенгдошларининг катта жамоасига қўшилиши, ўқитувчининг синфдаги тушунтиришларига диққатини қаратиши, уйга берилган топшириқларни бажаришда ўз ҳаракатларини назорат қилиши лозим. Билимларни ўзлаштиришда ўйиннинг ўрни ҳамда унинг давомийлиги кўпгина омилларга боғлиқ, бу омиллар қуйидагилар: ўқувчиларнинг таълим олганлик даражасига, маълумотни ўзлаштира олиш даражасига, ўзлаштириладиган материалнинг мураккаблик даражасига ёки бошқа тиллардан кириб келган материални назоратда бўлишлигига ҳамда ўқув машғулотининг аниқ мақсадларга йўналтирилганлигига боғлиқдир. Қуйида ушбу рефлексив кўникмаларни шакллантирилишига кўмак берувчи метод ва технологиялардан наъмуналар келтирамиз:

«Таснифланиш жараёнини ўрганиш» методикаси

Мақсад: мулоҳозалар кетма-кетлиги, умумлаштириш жараёлари даражасини тадқиқ қилиш учун тадбиқ қилинади.

Методикага тайёргарлик кўриш. Ҳар бир таснифдаги гуруҳ учун 7*7см

ўлчамдаги 5 дона расм танлаб оламиз: ўйинчоқлар, идишлар, кийимлар, мебеллар, ёввойи ҳайвонлар, уй ҳайвонлари, сабзавотлар, мевалар.

Методикани ўтказилиши. Ҳар бир ўқувчи билан ўйин индивидуал тарзда ўтказилади. Ўқувчига биттадан расм берилиб, сўралади: «Расмларни бир-бирига мослигига қараб ажратинг. Нима учун улар бир-бирига мос келади, тушунтириб беринг». Агар ўйинда иштирок этаётган ўқувчи ҳеч қандай тушунтиришсиз ажратишни бажараётган бўлса, унга: “Нима учун бу қисмга олма расмини қўйдинг?, Нима учун олмани мева деб ўйлайсан?” каби саволлар берилади. Агар ўқувчи бирон-бир расмни ҳеч бир гуруҳга нисбатан қўя олмаса, у ҳолда ундан “Нима учун бу расм ҳеч бир гуруҳга тўғри келмайди деб ҳисоблайсан? деб сўралади. Масалан: Ананас

Маълумотларни қайта ишлаш. Ҳар бир таснифдаги гуруҳлар бўйича тўғри жавоблар санаб чиқилади. Натижа жадвалда кўрсатилади. Предметларни бирлаштириш учун, ўқувчиларнинг ҳар бир таснифдаги гуруҳ юзасидан асос аниқланади: муҳим белгига таянганми, муҳим бўлмаганларини ажрата олганми? ва хоказо.Шуни хулоса қилишимиз мумкинки, ўйин таълим бериш воситаси бўлиб, у таълим олувчиларнинг ақлий фаолиятини фаоллаштиради, ўқув жараёнини қизиқарли ва ҳаяжонли бўлишига, ўқувчиларни ўз-ўзини таҳлил қилишга ўрганишларида туртки беради.

“Кўп қисмли асар” технологияси. Технология методик жиҳатдан такомиллаштирилди. Бунда икки хил йўл тутилди. Улар:

1-йўл. Эртакни бир нечта қисмга ажратишда ўқувчиларнинг китоб ва қалам билан ишлашларини таъминлаш. Бунда ўқувчи ўзига ажратган ҳар бир қисм олдига 1, 2, 3 ва ҳ.к. тарзида рақам қўйиб чиқади. Ўқитувчи (кутубхоначи, волонтёр, ота-оналар) дастлаб ўқувчи томонидан рақамланган асар қисмлари билан танишиб, ўқувчи бу топшириқни тўғри бажарган бўлса, ҳар бир қисм бўйича режа тузиши мумкинлигини айтади. Акс ҳолда ўқувчини асарни яна бир марта диққат билан ўқиб чиқиб, сўнгра кичик қисмларга ажратишга йўналтиради 2-йўл. Бошланғич синф ўқувчиларининг ёш, психологик хусусиятлари ҳамда шахсий ривожланганлик даражасини инобатга олган ҳолда уларга асарни кичик қисмларга бўлишда методик ёрдам кўрсатиш. Борди-ю, ўқувчи бадиий асарни кичик қисмларга ажратишда қийинчиликка дуч келаётган бўлса, ўқитувчи аниқ саволлар билан мурожаат қилиб, уни тўғри йўналтириши зарур.

I. “Эртак (ҳикоя, шеър)ни якунла” технологияси. Технологияни бевосита бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини ривожлантириш мақсадида қўллаш учун унинг мазмунига маълум ўзгартиришлар киритилди. Респондент-ўқувчиларнинг эътиборига улар томонидан ўқитувчи, кутубхонаси, волонтёрлар ва ота-оналар билан

биргаликда ўқилган севимли бадиий асарлардан олинган парчалар ҳавола этилди. Бунинг учун қуйидаги асарлардан парчалар тайёрланди

Ўқиш учун парчалар олинган бадиий асарлар

1-синф учун: 1. “Бўғирсоқ” эртаги. 2. “Зумрад ва Қиммат” эртаги. 3. “Бўри ва етти улоқча” эртаги. 4. “Қарға ва тулки” эртаги. 5. “Икки дўст ва айиқ” ҳикояси. 6. “Баҳор яқин” шеъри (З.Диёр) 3-синф учун: 1. “Бирлашган ўзар” эртаги. 2. “Ур, тўқмоқ!” эртаги. 3. “Мақтанчоқ жўжа” эртаги. 4. “Навоий ва Ҳусайн” ҳикояси. 5. “Эшакнинг эртаги” шеъри (А.Обиджон). 6. “Янги йил арчасига” (Э.Воҳидов).	2-синф учун: 1. “Қизил қалпоқча” эртаги. 2. “Чаён ва тошбақа” ҳикояси. 3. “Қуёнчанинг уяси” эртаги. 4. “Хурмача полвон” эртаги. 5. “Аълочи хўроз” шеъри (А.Обиджон). 6. “Йиртқич” шеъри (А.Обиджон) 4-синф учун 1. “Буратино” эртаги. 2. “Маугли” ҳикояси. 3. “Ўн икки ой” эртаги. 4. “Олтин балиқ” (“Балиқчи чол ва балиқ ҳақида эртак”; А.С.Пушкин). 5. “Уч оғайни ботирлар” эртаги. 6. “Фалокат босган деҳқон” (И.А. Крылов).

II. “Саволларга асосланган эртаклар” технологияси. Ушбу методика ҳам бошланғич синф ўқувчиларида китоб ўқишга бўлган ижобий муносабатни шакллантириш, китобхонлик кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қилади. Технология ўқувчиларнинг китоб ўқишга бўлган муносабати қандай мазмунга эгалиги (ижобий ёки салбий эканлиги)ни аниқлаш мақсадида қўлланилади. Тажриба даврида респондент-ўқувчиларнинг эътиборларига учта кичик ҳажмли эртаклар ҳавола этилади. Шунингдек, методика асосида ташкил этиладиган синов ишлари респондент-ўқувчилар билан алоҳида-алоҳида олиб борилди. Ўқитувчи (кутубхоначи ёки волонтёр) ҳар бир ўқувчига “Мен ҳозир учта эртак ўқийман. Сен уларни диққат билан тинглайсан. Сўнгра мен ўқилган эртаклар асосида сенга саволлар бераман. Сен эса уларга жавоб қайтарасан”, - дейди.

Тажриба-синов ишлари жараёнида респондент-ўқувчиларнинг эътиборига қуйидаги эртаклар ҳавола этилди: “Тулкининг жазоси” (ўзбек халқ эртаги), “Мушук билан чумоли” (рус халқ эртаги), “Деҳқон билан айиқ” (рус халқ эртаги).

III. “Мен ёқтирган шеър” технологияси. Мазкур технология бошланғич синф ўқувчилари ўртасида назмий асар (шеър)ларни тарғиб қилишга ёрдам беради. Технологиянинг мақсади бошланғич синф ўқувчиларига болалар учун мўлжалланган шеърлар тўғрисида маълумотларни бериш ва уларда шеърий асарларни ифодали ўқиш кўникмаларини ривожлантиришдан

иборат.

Ўқитувчи технологияни қўллашдан аввал ўқувчиларга туркум шеърларни тақдим этади ва уларни ёдлаш топшириғини беради. Шеърларни ёдлаш учун ўқувчиларга муайян вақт берилади. Ўқувчилар томонидан шеърлар ёд олингандан кейин машғулотларнинг бирида бошланғич синф ўқитувчиси ушбу технологияни қўллайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Дьяченко О.М., Веракса Н.Е. Что на свете не бывает? – М.: Знание, 1994.
2. Ишмуҳамедов Р., М. Йўлдошев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма) -Т.: 2013. - 279 б.
3. Э.Валиев. Педагогик технология фани бўйича изоҳли луғат. Термиз.2014 й.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	BIOLOGIYANI PUXTA O`RGATISH UCHUN SMART MEZON METODIKASINI QO`LLASH 6-SINFDAGI “O`SIMLIKLAR OILALARI” MAVZUSI MISOLIDA Mo`minova Umidaxon To`xtamurodovna Burxonova Munojatxon Maxkamboyevna	4
2.	ZEA MAYS L SACCHARATANING AYRIM MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI Kaxxorova Umida Rahimjon qizi	7
3.	MIRZO ULUG‘BEKNING JAHON ILM-FANIGA QO‘SHGAN HISSASI Ahmedova Muhabbat Usmonovna Avg‘onova Mag‘fuza Orifovna Davranov Mirziyod Jaloliddin o‘g‘li Samadov Xurshid O‘lmasjonovich	10
4.	TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA BUYUK ALLOMALAR FIKRLARI VA BUGUNGI KUN TALABI Matmuratova Oygul Urazbayevna Urabayeva Shahlo Davlatbayevna	16
5.	AT-TERMIZIYNING YOSHLAR TARBIYASIGA OID TO'PLAGAN HADISLARI HAQIDA Samatov Hurshid O'lmasjonovich Kuvatov Zuxriddin Samariddin o'g'li Boltaev Otabek Xusan o'g'li Xasanov Golibjon Safarboy o'g'li	19
6.	YURIDIK TEXNIKUMLAR FAOLIYATI XORAZM VILOYAT YURIDIK TEXNIKUMI MISOLIDA Ibragimova Zulayho Karimbayevna Ozodova Iroda Hamza qizi	25
7.	PVX KOMPOZITSIYALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNI QO'LLASH O‘rozova Sabohat Anvar qizi	27
8.	RUS TILI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH Nuraliyeva Lola Aminovna	31
9.	TEXNOLOGIYA FANINING KASB TANLASHDAGI O‘RNI Raxmatova Sayyora Abdugapparovna	34
10.	ПЕНИТЕНЦИАР ТИЗИМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ А.А. Шамансуров	37
11.	ПЕНИТЕНЦИАР ТИЗИМНИ ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ СТАНДАРТЛАР АСОСИДА МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ А.А. Шамансуров	42
12.	YOSHLARNI ROBOTOTEXNIKA ASOSLARIGA O'QITISHNI ILMIY-METODOLOGIK TA'MINOTI Allambergenova Shazada	51
13.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARI Abdazov Sultonbek Uktamjonovich	53
14.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI VA TARBIYA DARSLARI MAZMUN-MOHIYATI Abdurazzakova Shahrizoda Abdugaffarovna	56

15.	INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI Palvanova Gulnora Ismailovna	59
16.	BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDAGI MAQOLLARNING PIRLS TADQIQOTI DARAJASIDAGI TAHLILI VA AHAMIYATI Bakirova Umida Axparaliyevna	62
17.	MARKAZIY OSIYO – XALQARO MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA AR-ROZIYNING KIMYOGA OID ASRLARI VA ULARNING FANDAGI AHAMIYATI Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o‘g‘li	66
18.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI Yunusova Nargiza Azamatovna	72
19.	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSIDA TILGA OID MUNOSABATLAR TAHLILI Tuxtarova Yorkinoy Toshpulatovna	76
20.	ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРИВЛЕЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ К ПРОФЕССИИ Нарзуллаева Шоира Бахшиллоевна	81
21.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH Elmurodova Rohila Axmedovna	86
22.	ЎЙИН АСОСИДА РЕФЛЕКСИВ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ Каримова Нилуфар Раимжановна	89

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil 97 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022